 تعزیراتی **ta:zi:ra:ti:** jinoyatga tegishli; قوانین ~ *m*
 jinoyat kodeksi
 تعصب **ta:ssub** *m* 1 xurofot; 2 eskilik sarqitlariga
 ko'r-ko'rona ergashish; fanatizm, mutaassiblik
 تعطل **taattul** *m* o'smay qolish, kasodlik,
 turg'unlik; سیاسی ~ siyosiy inqiroz
 تعطل **taattulo'-jamu:d** *m* jft q جمود
 تعطیل **ta:ti:l** *ms* 1 ta'til, dam olish; 2 tanaffus
 تعطیلات **ta:ti:la:t** *ms* ko'p q تعطیل
 (کی) ~ کرنا **ta:zi:m** *ms* hurmat, ta'zim; کرنا
 ta'zim q/q
 تعفن **taafun** *m* P-n sassiqlik, badbo'y hid
 تعقید **ta:qi:d** *ms* chigallik, chalkashlik
 تعلق **ta:lluq** *m* aloqa, munosabat, rishta;
 bunga mening hech qanday اس سے میرا کوئی ~ نہیں
 aloqam yoq; ہے; menga kelsak ... جہاں تک میرا ~ ہے
 تعلقات **ta:lluqa:t** *m* (dan ko'p) تعلق) aloqalar;
 munosabatlar; دوستانہ ~ do'stona munosabatlar;
 قائم ~ قائم، (استوار) کرنا diplomatik aloqalar;
 سفارتی ~ aloqa o'rnatmoq; توڑنا (منقطع کرنا) aloqani
 uzmoq
 تعلیم **ta:li:m** *ms* o'qish, ta'lim; حاصل کرنا
 ta'lim olmoq, o'qimoq; (دلالت) ~ دینا ta'lim bermoq,
 oqitmoq, o'rgatmoq; اعلیٰ ~ oliy ta'lim
 تاہم ~ **ta:linga:h** *ms* ta'limgoh, o'quv yurti
 یازد ~ **ta'lim ya:fta** savodli, o'qimishli
 تعلیمات **ta:li:ma:t** *ms* ko'p 1 ta'limot; 2 g'oya,
 nazariya
 تعلیمی **ta:li:mi:** o'qishga, ta'limga oid; مرکز ~ *m*
 o'quv markazi; o'quv yurti
 تعمیر (کی) ~ کرنا **ta:mi:r** *ms* qurish, barpo etish; کرنا
 qurmoq; زیر ~ zere-ta:mi:r qurilayotgan

نو ta:mi:re-nao ms qayta qurish, ta'mirlash, rekonstruksiya

تعمیراتی ta:mira:ti: qurilishga oid; منصوبے ~ m qurilish rejaları

تعمیری ta:mi:ri: 1 ta'mirlash (qurilish)ga doir; 2 maj ijobiy, konstruktiv

تعمیل ta:mi:l ms amalga oshirish, bajarish

ارشاد ta:mi:le-irsha:d ms iltimosni bajo keltirish

تعمیذ ta:vi:z m tumor

تعمیذ ta:vi:q ms kechikish, kechiktirish, to'xtatish; میس ڈالنا ~ qoldirmoq, orqaga surmoq

تعمیش ta:yush m P-n 1 aysh-ishrat, kayf - safo; 2 dabdaba, hashamat; ~ سامان:ma:ne-ta:yush m zeb-ziynat buyumlari

تعمیشتات tayusha:t P-n ko'p q تعمیش

تعمین tayyun m tayinlash, belgilash, aniqlash

تعمینات ta:yyuna:t 1. joylashtirilgan, o'rnashtirilgan; کرنا ~ کرنا polisiya joylashtirmoq; 2. dip [chet davlatga] vakil qilib tayinlangan

تعمیناتی tayuna:ti: ms 1 vazifa berish; 2 topshiriq, ishga tayinlash

تعمانی tag'a:ful m o'zini bilmaganga olish; parvo qilmaslik; e'tibor bermaslik

تعمذی tag'zi:ya m P-n 1 oziq - ovqat; 2 esk ovqatlantirish

تعمزل tag'azzul m 1 g'azal yozish; 2 g'azalxonlik

تعمیر tag'ayyur m tur o'zgarish

تعمیر tag'ayur pazi:r o'zgaruvchan, o'zgarib turuvchi

تعمیر tag'ayur pazi:ri: ms ozgaruvchanlik, beqarorlik, o'zgarib turish

تعمید tag'ayuro'-tabaddul m P-n jft q

تعمیرات tag'ayura:t m ko'p o'zgarishlar, siljishlar (bir تعمیر)

تفاخر tafa:xur m P-n 1 yuq iftixor, g'urur; 2 maqtanish; 3 manmanlik, takabburlik

تعمیر tafa:si:r m ko'p q تعمیر

تعمیلات tafa:si:l ms P-n q تفصیلات

تفاوت tafa:vut m 1 farq, tengsizlik, tafovut; 2 masofa

تعمیش tafti:sh ms 1 tekshirish, taftish, tergov; tadqiqot; کرنا ~ محاطے کی ish (masala) yuzasidan tekshiruv o'tkazmoq

تفرق tafarruq m farq, farqlanish, ajralib turish

تفرقة tafarruqa m 1 bo'linish, ajralish; parchalanib ketish; 2 kelishmovchilik, ixtilof; ڈالنا (میں) ~ نیزو solmoq

تفرقة انمازی tafarruqa anda:zi: ms orani buzish, nizo solish

تفرقة انمازی tafarruqa ba:zi: q تفرقة انمازی

تفریح tafri:h ms ko'ngil ochish; o'yin - kulgi, tomosha, ermak

تعمیش tafri:hbaxsh ko'ngil ochuvchi; orom beruvchi

تعمیش tafri:he-taba ms xursandchilik, kayfi (dimog'i) chog'lik

تعمیش tafri:hga:h ms ko'ngil ochadigan joy; tamoshagoh, istirohat bog'i

تعمیریا tafri:han ko'ngil ochish maqsadida

تعمیری tafri:hi: ermak, ko'ngilni ochadigan (mas konsert)

تعمیریت tafri:t ms 1 kamchilik; 2 kamayish, kamaytirish; ززر ~ tafri:te-zar ms muomaladagi pul miqdorini kamaytirish yo'li b/n pulning qadrini oshirish, deflyasiya

تعمیریت tafri:q ms 1 ajratish, farq qilish; 2 kamsitish, tahqirlash; haq-huquqini cheklab qo'yish; 3 hisob; ayirish; bo'lish

تعمیر tafsi:r ms Qur'onning tafsiri

تفصیل tafsī:l *ms* tafsilot, batafsillik
تفصیلات tafsī:la:t *ms ko'p* (bir تفصیل) tafsilotlar,
 ikir - chikirlar; mufassallik
تفکر tafakkur *m* o'ylash, fikrlash, mulohaza
 yuritish
تفضن tufannun *m* P-n 1 hazil, ko'ngil ochish;
 2 xursandchilik, istirohat
تفویض tafvi:z *m* topshirish, o'tkazish
تفهیم tafhi:m *ms* 1 tushuntirish; 2 izoh, sharh;
 3 انہام و تفہیم q
تقابل taqa:bul *m* qiyoslash, solishtirish
تقاۃ buli: lisa:niya:t *ms* qiyosiy
 tilshunoslik
تقاریب taqa:ri:b *ms ko'p q* تقریب
تقاریر taqa:ri:r *ms ko'p q* تقریر
تقاضا taqa:za: *m* talab, taqozo; - وقت vaqt
 taqozosi
تقاضا taqa:za *q* تقاضا
تقaddus taqaddus *m* 1 poklik, muqaddaslik;
 2 daxlsizlik
تقaddum taqaddum birinchi galdagi (navbatdagi);
 eng muhim, kechiktirib bo'lmaydigan
تقدیر taqdi:r *ms* 1 taqdir, qismat; 2 maj
 "peshona"; # چکنا ~ omadi kelmoq, baxti
 ochilmoq
تقرر taqarrur *m* tayinlanish; تقرر (ک) ~ tayinlan-
 moq (*lavozimga*)
تقررات taqarrura:t *m* P-n ko'p q تقرر
تقarruri taqarruri: *ms* tayinlanish (*lavozimga*);
 کی اسناد پیش کرنا ~ dip ishonch yorlig'ini topshirmoq
تقرب taqri:b *ms* biror narsaga bag'ishlangan
 yig'in, kecha, marosim
تقرب taqri:be-ru:numa:i: *ms* P-n taqdimot
 (biror narsaning birinchi marta jamoatchilik
 e'tiboriga taqdim etish marosimi)

تقریبات taqri:ba:t *ms ko'p q* تقریب
تقریباً taqri:ban taxminan, deyarli
تقریر taqri:r *ms* 1 nutq; 2 leksiya, ma'ruza; کرنا ~
 nutq sozlamog, ma'ruza q/q; تحریر ~ آزادی
a:za:di:e-taqri:ro'-tehri:r *ms* so'z erkinligi
تقریز taqri:z *ms* taqriz, biror asar tog'risida
 fikr bildirish
تقسیم taqsi:m *ms* 1 bo'lish, bo'linish, ajrash;
 2 bo'lishib olish (berish); 3 tarqatish; ~ ملک کی
 mamlakatning bo'linishi, parchalanishi; ~ اخبار کی
 gazetani tarqatish; a) (کی) ~ کرنا bo'lmoq,
 taqsimlamog; b) bo'lishmog; c) tarqatmog
تqsi:me-asna:d *ms* diplomlarni
 topshirish
تقلید taqli:d *ms* taqlid qilish, o'xshatish
تقویت taqvi:yat *ms* 1 kuchaytirish, mustahkam-
 lash; 2 yordam, qo'llab-quvvatlash; کچھ (کو)
 kuchaytirmog, rag'batlantirmog; ملنا (کو)
 foydasi (nafi) tegmog
tak I *ko'm* -ga,-gacha; ~ شام kechgacha;
 ~ shu paytgacha
 II ham, hatto; بچے bolalar ham;
 .. کہا hatto, shu qadarki..
tikka: *ms* burda, parcha, jaz (qo'sht);
 گوشتی کرنا ~ go'shtni kabobbop qilib chopmog
tikka: kaba:b *m* jaz kabob
taka:li:f *ms ko'p* (bir تکلیف) 1 qiyinchi-
 liklar; 2 og'riliklar
taka:li:fo'-masa:ib *jft* *q* تکالیف
taka:n *ms* *q* تکاوت
takabbur *m* takabbur, dimog'dor, mag'rur,
 kibru havoli
takbi:r *ms* 1 isl' xudoni ulug'lash, ta'riflash;
 "Olluhu akbar" deyish, hamdu sano aytish;
 2 maj ulug'lik, salobat, buyuklik

تکذیب **takzi:b** *ms* yolg'on gapgapni isbotlash, yo'lg'onchilikni fosh etish

تکرا **takra:r** *m* 1 biror narsani qaytarish, takrorlash; 2 tortishuv, aytishuv, janjal

تکرا **takra:ran** qaytadan, boshqatdan

تکريم **takri:m** *ms* P-n izzat - hurmat, ehtiram

تکفیر **takfi:r** *ms isl* kofirlikda ayblash

تکلا **takla:** *m* 1 o'q, duk; shpindel (*g'ilidirakda*)

تکلف **takalluf** *m* 1 takalluf; 2 rasmiyatchilik;

3 mulozamat; بڑے سے ~ butun qoidalarini joyiga qoyib; juda mulozamat b/n; کرنا ~ mulohaza q/q, tortinmoq; ~ چھوڑے ~ rasmiyatchilikni qo'ying

تکلم **takallum** *m* P-n gaplashish, suhbatlashish; ~ امرات *m* suhbatlashish uslubi

تکلیف **takli:f** *ms* 1 ovoragarchilik, urinish, bezovta bo'lish; 2 qiyinchilik; azob - uqubat; ~ اٹھانا ~ bekorga ovora b/q, urinmoq; خواه خواہ ~ کرنا bezovta b/q; ~ پہنچانا (دینا) ~ bezovta q/q, tashvishga solib qo'yimoq
تکلیف **talki:fdeh** azob beradigan, qiyin, og'ir, mashaqqatli

تکملة **takmila** *m* ilova, qo'shimcha

تکمیل **takmi:l** *ms* 1 tugallash; 2 bajarish, tamomlash; (کی ~ کرنا) tamomlamoq, bitirmoq; (کو) پایہ ~ تک پہنچانا (**pa:yaye-takmi:l**) oxiriga yetkazmoq, tugallamoq

تکنا **takna:** o' tikilmoq; ko'z tikmoq; ~ (کا) منہ ~ birovning nima deyishini kutib turmoq; birov nima desa, o'shani q/q; og'ziga qaramoq

تکنولوجی **tekno'lo'ji:** *ms* H-n q ئىنسانلارنى

تکنیک **tekni:k** *ms* 1 badiiy mahorat; 2 texnika

تکنیکی **tekni:ki:** texnikaga oid, texnik

تکون **tiko'n** *m* uchburchak

تکونا **tiko'na:** 1. uchburchak shaklidagi; 2. *m*

uchburchak

تکیه **takya** *m* 1 yostiq, bolish; 2 tayanch, suyanch
کلام ~ **takya-kala:m** *m* gapda qaytarilib

turiladigan keraksiz so'z

تگرا **tagRa:** jussali, baquvvat

تگ دو **tago'-do'** *ms* yugurib - yelish, harakat qilish

تیل **til** *m* 1 xol; 2 ko'z qorachig'i; 3 nurlarning kesishgan nuqtasi

..... II *m* 1 zig'ir (*o'simlik va uning mayda urug'i*); 2 maj zarracha narsa گندیش کی دھرنے ~ zig'ircha ham bo'sh joy yo'q, igna tashlasang yerga tushmaydi; (~ اوٹ پہاڑ اوٹ) ~ اوٹ پہاڑ اوٹ ~ mehr ko'zda

تالا **tala:** 1. 1 tub, tag; 2 tag, taglik (*poyafzalda*); 2. ko'm کے تے ostida, binoan

تالا **tula:** // ہوتا ~ (پ) jazm etmoq, tayyor b/q, shaylanmoq

تالازم **tala:zum** *m* bir biriga bog'liq bo'lish

تالاش **tala:sh** *ms* 1 qidirish, axtarish, izlash;

2 topish, کرنا ~ (کی) qidirmoq; topmoq

تالاش **tala:sho'-justju:** *ms* 1 qidirish; 2 izlanish; 3 tintuv, taftish

تالاش **tala:shi:** *ms* tintuv, taftish; ~ لیتا (کی) tintuv q/q

تالاطم **tala:tum** *m* 1 dengiz (daryo) to'lqini;

2 jo'shqinlik; 3 jo'sh urush; ہوا ~ پیدا ہوا

holatda qizg'inlik ro'y berdi

تالافی **tala:fi:** *ms* o'rmini to'ldirish, zararni qoplash; tovon, badal

تالوات **tila:vat** *ms* [Qur'onni] tilovat qilish

تالپاT **talpaT** 1 ag'darilgan; 2 barbod bo'lgan;

تالپا ~ پوymol (yoq) q/q, buzib tashlamoq

تالچا **tilchaTa:** *m* tilchata (*hasharotlarning bir turi*)

talx achchiq; taxir; تجربه ~ *m* achchiq tajriba
 ~ باتمس **talxo'-tursh** achchiq - nordon; وترش
 achchiq - chuchuk gaplar
talxi: *ms* 1 achchiqlik; 2 sovuqlik
 (munosabatda)
talxi:s *ms* qisqacha mazmun; dayjest
tulsi: *ms* rayhon
talaf yo'q (vayron) bo'lgan; کرنا ~ yo'q
 (nobud) q/q
talaffuz *m* talaffuz
talfi: *ms* barbod bo'lish, halokat
tilak *m* hindu tilak (peshonaga qo'yila-
 digan belgi)
talak *q* تک 1
tilmila:na: o'z bezovtalanmoq,
 tipirchilamoq, to'lg'anmoq (*mas* qayg'u-
 alamdan)
talmi:h *ms* ishora, obraz; majoz
talmi:z *m* shogird; izdosh, murid
talna: 1. o' qovurmoq; 2. o'z qovurilmoq
tulna: o'z 1 tarozida tortilmoq; 2 shaylan-
 moq (پ nimaga)
talaya: *ms* hovuz, halqob
talva: *m* tovon; # چھلٹی ہوتا ~ oyoqda oyoq
 qolmaslik, juda holdan toymoq; ٹلوے دھو دھو کے
 o'ta laganbardorlik q/q
talva:r *ms* qilich, shamshir; نکلی *ms*
 yalang'ochlangan qilich; کا پھل ~ qilichning
 dami; # کا زخم (گھاؤ) بھر جاتا ہے، زبان کا زخم نہیں بھرتا #
 qilich zaxmi bitar, til zaxmi bitmas
tilli: *ms* qorajigar, taloq
tale tagida, ostida; ~ جھنڈے bayroq ostida
tum 1 sen, senlar; 2 sizlar; تم کو senga; sizga
 تانچہ *q*
tuma:zat *ms* jazirama issiqlik,

harorat; آفتاب ~ quyoshning harorati
 تماشا *q*
tama:sha:i: *m* tomoshabin
tama:shbi:n *m* P-n *q* تماشائی
tama:sha *m* 1 tomosha, 2 o'yin, spektakl
 vnk; # بنا ~ mazah (kulgi) b/q; گاہ ~ **tama:sha-
 ga:h** *ms* tomoshagoh (*kino, teatr vnk*)
tama:m 1 tamom, butun; 2 tugallangan;
 bo'ldi, tamom !
tama:mshud tugallandi, tamom bo'ldi
tama:Ncha *m* shapaloq, tarsaki; رسید کرتا، ~
 shapaloq urmoq, tarsaki tortmoq
tamba:ku: *m* tamaki; پیتا ~ tamaki
 chekmoq
tamsi:l *ms* oxshatish; kinoya, majoz,
 allegoriya (*adabiyotda*)
tamtama:na: o'z qizarib ketmoq (*mas*
 issiqdan)
tamaddun *m* madaniyat; sivilizatsiya
tamdiya *m* 1 antonim; 2 qarama-qarshilik
tamarhindi: *ms* tamar hindiy, tamarind
 (nordon mera)
tamassur *m* istehzo; mazax, masxara
 آمیز ~ **tamassur a:mez** P-n kulgili; hazilomiz
 istehzoli
 hazil ohangida, istehzo b/n
tamg'a *m* 1 tamg'a, belgi; 2 medal, orden;
 nishon; طلائی (سونے کا) ~ (nishon);
 nishon b/n taqdirlanmoq; orden (medal)
 olmoq
tamanna: *ms* 1 xohish; intilish; 2 orzu,
 niyat
tamavvaj *m* 1 havo yoki suvning mavj
 urishi (to'lqinlanishi); 2 tuyg'ularning jo'sh
 urishi

تہارا **tumha:ra:** 1 sening, seniki; 2 senlarning, senlarniki
 تمہید **tamhi:d** ms kirish, debocha, muqaddima
 تمہیں **tumheN** senga, seni; senlarga, senlarni
 تمہیں **tumhi:N** xuddi sen, sen o'zing
 تیز **tami:z** I ms 1 odob; 2 ajratish, farqlash;
 تمہیں اچھے (میں) ~ کرنا farq q/q, farqiga bormoq; تمہیں
 sen yaxshi-yomonning farqiga bormaysan; ~ سے بات کرنا odob (hurmat) b/n
 gaplashmoq
 II m gram ravish (h/da حرفہ)
 تن **tan** m badan, tana; بدن ~ butun
 badanda
 تہا **tane-tanha:** yolg'iz, yakkayu yagona
 تہا **tansa:zi:** ms P-n kulturizm (sport turi)
 تانا **tana:** m tana; poya; ~ درخت daraxtning
 tanasi
 تانا **tana:-tani:** ms tortishuv; sovuqlik,
 keskinlik
 تازہ **tana:zo** q تازہ q
 تازہ **tana:za:t** m ko'p q تازہ q
 تازہ **tana:za** m tortishuv, nizo, janjal,
 keskinlik; کشمیر **tana:zae-kashmi:r** Kashmir
 nizosi
 تانہ **tana:sa:N** jonining huzurini o'ylovchi,
 dangasa
 تانہ **tana:sa:ni:** ms 1 jonining huzurini
 o'ylash, o'zini koyitmaslik; 2 maj sustkashlik,
 yalqovlik
 تازہ **tana:zir** 1. uzoqdan ko'rinish; manzara,
 perspektiva; 2. ko'm P-n میں کے tomonidan;
 اس ~ میں bu jihatdan, zero
 تانہ **tana:sub** m mutanosiblik, tarkibiy
 bo'laklarning bir - biriga mosligi
 تارہ **tana:var** 1 kuchli, baquvvat; 2 tur baland,

katta
 تارہ **tana:vul** m yeyish; کرنا ~ tanovul q/q,
 yemoq
 تارہ **tana:o** m H-n keskinlik, tanglik; jiddiylik
 تارہ **tambu:r** m tambur (musiqqa asbobi)
 تارہ **tambi:h** ms 1 tanbeh; 2 ogohlantirish;
 کرنا a) tambeh bermoq, b) ogohlantirmoq
 تارہ **tanxa:, tanxa:h** ms maosh, ish haqi
 تارہ **tanxa:da:r** q تارہ یاب ~ دار
 تارہ **tanxa:ya:b** 1 maosh oluvchi; 2 maj
 maosh b/n tirikchilik qiluvchi; 3 yollangan,
 yollanma
 تارہ **tund** 1 tur tez; 2 qovog'idan qor yog'adi-
 gan, jahldor, jizzaki; 3 achchiq; 4 qattiq
 تارہ **tundxu:** q تارہ مزاج ~ خو
 تارہ **tundmiza:j** tabiyatan to'ng (qo'pol)
 تارہ **tundo'-tez** juda qattiq, shiddatli
 تارہ **tandurust** bardam, tani sog', tetik,
 baquvvat; تارہ ~ sog'lom b/q
 تارہ **tandurusti:** ms sog'lik, sihat-salomatlik;
 تارہ ~ تانی sog'lik - tuman boylik
 تارہ **tandu:r** m tandir
 تارہ **tandu:ri** tandirda pishgan; چکن ~ m
 tandirda pishgan tovuq; تارہ ~ tandirga
 yopilgan non
 تارہ **tandehi:** ms biror ishga berilish;
 g'ayrat-hafsala; sa'y-harakat, tirishqoqlik
 تارہ **tanazzul** m tushkunlik, inqiroz
 تارہ **tansi:b** ms 1 o'rnashtirish, joylash;
 2 o'rnashish; 3 maj moslama
 تارہ **tansi:ba:t** ms ko'p 1 inshootlar,
 ob'yektlar; 2 idoralar, muassasalar
 تارہ **tansi:x** ms bekor (yoq) qilish, tugatish
 تارہ **tanzi:m** ms 1 tuzish, tashkil etish,
 uyushtirish; 2 tashkilot, idora, muassasa

نہو **tanzi:me-nao** ms qayta tashkil etish; qayta qurish
تنظیم **tanzi:mo'-tashki:l** q تنظیم
تنظیمی **tanzi:mi:** tashkiliy; معاملات ~ m tashkiliy masalalar
تنفس **tanaffas** m nafas olish
تنقید **tanqi:d** ms tanqid; کرتا ~ (کی) tanqid q/q
نگار **tanqi:dniga:r** m tanqidchi, munaqqid
نگاری **tanqi:dniga:ri:** ms tanqidchilik
تنگ **taNg** 1 siqiq, tor; آتا ~ (سے) jonga tegmoq; xunob b/q; کرتا ~ a) o'chakishmoq, tegishmoq; b) qiynamoq, siqmoq, joniga tegmoq; 2 kambag'al, muhtoj, bechorahol; ان دونوں میرا ہاتھ ذرا ہے۔ کالتاروق
تنگدانی **taNgda:mani:** ms a) joyning tor bo'lishi; b) moddiy giyinchilik, yetishmovchilik
تنگدست **taNgdast** qo'li kalta, muhtoj
تنگدستی **taNgdasti:** ms muhtojlik
تنگنظر **taNgnazar** fikr doirasi tor, tor fikrli, kaltabin
تنگنظری **taNgnazri:** ms fikr doirasining torligi, erkin fikr yurita olmaslik, cheklanganlik
تنگی توشی **taNgi:-turshi:** ms jift og'irlik, qiyinchilik
تانمن **tan-man** m jon - tan; سے ~ joni dildan
تانا **tanna:** o'z 1 tarang b/q; 2 tortilmoq, tutilmoq; 3 maj o'zidan ketmoq; kekkaymoq
تاناصو **tanavvo'** m xilma - xillik, rang - baranglik
تانوین **tanvi:n** m arab so'zlarining oxirida kelib ravish yasaydigan qo'sh chiziqcha - (an o'qiladi; ایرادتا **ira:datan** ataylab)
تانہا **tanha:** 1 tanho, yakka, yolg'iz, so'qqa; 2 bittagina, tengi yo'q
تانہائی **tanha:i:** ms 1 yolg'izlik, tanholik, kimsa-

sizlik, so'qqaboshlik; 2 xilvat joy
تو **tu:** sen; # تو میں میں کرتا ~ janjallashmoq, tortishmoq, aytishmoq, gap talashmoq
تو I **to I** (yuklama) ku, esa; یہ سب جانتے ہیں ~ سب جانتے ہیں; میں ~ جاؤنگا; buni-ku hamma biladi; تم نہیں جاؤنگے؟ میں ~ جاؤنگا; Sen bormaysanmi? Men esa boraman
..... II (qo'shma gapda bog'lovchi vazifasini bajaradi); اگر وہ پڑھنے گا ~ میں کہوںگا; agarda u so'rasa, men aytaman
توا **tava:** m tova
توازن **tava:zun** m 1 tarozi pallalarining barobar turishi; 2 muvozanat, og'maslik; 3 maj muvozanat, biror masalada ikki tomon o'rtasidagi tenglik
تواضیح **tava:zo'** ms 1 mehmonnavozlik; 2 izzat-hurmat bildirish
توانا **tava:na:** kuchli, qudratli
توانائی **tava:na:i:** ms kuch, quvvat, qudrat; ~ اشئی atom quvvati
تویرا **to'bRa:** m xalta, torva; xurjun
توہ **to'ba** ms tavba, o'kinch, o'kinish; کرتا ~ tavba q/q; biror ishni qilmaslikka ahd q/q
توپ **to'p** ms to'p, zambarak, pushka
توپخانہ **to'pxa:na** m artilleriya
توتا **to'ta:** m طوطا
توتیش **tao'si:q** ms 1 tasdiqlash, ma'qullash
توتلا **to'tla:** tili chuchuk
توتج **tavajjo'** ms 1 diqqat, e'tibor; سے ~ diqqat b/n; 2 iltifot, g'amxo'rlik; (پر) ~ دینا; e'tibor bermoq; (کی) ~ مہذول کرنا; birovnig e'tiborini qaratmoq, diqqatini jalb etmoq; (کا) ~ مرکز بنا; diqqat markazida b/q
توز **to'R** ox sindiruvchi; yakson qiluvchi; ~ برف; muzyorar [kema]; ~ ٹینک tankka qarshi (mas to'p); جواب ~ جواب qaqshatqich zarba

پھوڑ ~ **to'R-pho'R** *ms* buzish-yorish; sindirish; zarar yetkazish; کا کام ~ a) buzg'unchilik; b) diversiya

توزنا **to'Rna:** o' 1 sindirmoq, buzmoq;

2 ajratmoq, parchalamoq; 3 maydalamoq (*pulni*); 4 bekor q/q (*mas* shartnomani); tarqatib yubormoq; 5 uzmoq (*aloqa vhk*)

توسط **tavassut** *m* 1. vosita; 2. ko'm سے ~ کے orqali, yordami b/n, tufayli

توسیع **taosi:** *ms* kengaytirish; kengayish, tarqalish

پسندی ~ **taosi: pasaNdi:** *ms* bosqinchilik siyosati, ekspansionizm

توشک **to'shak** *ms* ko'rpа - to'shak; matras

توقع **tavaqqo'** *ms* kutish, umid; (کی) ~ کرنا (رکھنا) umid q/q, kutmoq

توقیر **taoqi:r** *ms* 1 ulug'lik, buyuklik, viqor; 2 hurmat, ehtirom

توکل **tavakkal** *m* Ollohga ishonish; 2 hamma narsani Ollohga topshirish; ~ پر بھینٹنا ~ hech narsa qilmasdan xudodan umid qilish

تولا **to'la:** *m* to'la (*taxminan 11 grammga teng og'irlik o'lchovi*, ماش *ning o'n ikkidan bir qismi*); # پل میں ~ پل میں ماش # goh unday, goh bunday, juda o'zgarib turadigan, beqaror

تولنا **to'lna:** o' 1 tortmoq (tarozida), chamalab ko'rmoq; 2 *maj* taqqoslamoq, solishtirmoq, qiyoslamoq

تولا **to'la** *q* تولا

تولیہ **taoliya** *m* sochiq

تولنا **to'Nba:** 1 qovoq; 2 torli sozning qavariq qismi

توہین **tao'hi:n** *ms* hurmatsizlik; haqorat; yerga urish, kamsitish; (کی) ~ کرنا xo'rlamoq, kamsitmoq

تہ عدالت **taohi:ne-ada:lat** *ms* adliyaga (sudga) nisbatan hurmatsizlik

تہ **teh** *ms* 1 tah, qat, qatlam; 2 tag, tub, ost;

تہ میں ~ کرنا dengiz ostida (qa'rida); تک بچھتا ~ bukلامoq; دو ~ کرنا ikki bukلامoq; tagiga yetmoq, tushunib olmoq; دل سے ~

tehe-dil se samimiy, chin ko'ngildan

تہبند **tehbant** *q* تہمت **tehmat**

تہبہ **tehba-teh** qatlam-qatlam, qat-qat

تہخانہ **tehxa:na:** *m* yerto'la, podval

تہ دار ~ 1 ko'p qatlamli, qat-qat; 2 *maj* boy (*til*); 3 tushunishga qiyin bo'lgan [odam]

تہاپ **tha:p** *ms* 1 tarsaki, shapaloq; 2 tablani chertish

تہال **tha:l** *m* patnis, lagan

تہالی **tha:li:** *ms* lagancha, tarelka, likopcha

تہامنا **tha:mna:** o' ushlamoq, ushlab turmoq

تہان **tha:n I** *m* 1 joy; 2 makon, maskan

..... II *m* molxona, otxona

..... III *m* gazlama to'pi

تہانا **tha:na** *m* polisiya mahkamasi bo'limi, mirshabxona

تہائی **tihai:** *ms* uchdan bir qismi; دو ~ uchdan ikki qismi

تہاپر **thappaR** *m* tarsaki, shapaloq; (تارت) ~ tarsaki tushirmoq

تہاپکنا **thapakna:** o' 1 yengilgina shapati urmoq;

2 tasalli bermoq; 3 kaft b/n yengil-yengil

urmoq; کسی کی پیٹھ ~ bolani allalamoq; کو ~

a) birovning orqasiga (yelkasiga) qoqmoq;

b) *maj* xatti-harakatini ma'qullamoq

تہاتر **tihattar** yetmiş uch

تہتکار **thutka:r** *m* 1 tupuk, tupurish; 2 nafrat,

jirkanish; دینا ~ haqorat q/q, kamsitmoq

تہجی **tahajji:** *ms* 1 bo'g'in, hijo (*tilda*);

2 harflarning tartib b/n yozilishi; ~ حرفی-
huru:fe-tahajji: *m* harflar tizimi, alifbo
 تهرا **tehra:** uch bukilgan
 تهرڈکلاس **therD kla:s** *m* so'zl yomon, sifati past;
 uchinchi darajali
 تهذيب **tehzib:b** *ms* 1 madaniyat; 2 sivilizatsiya
 ~ تمدن **tehzib:bo'-tamaddun** *m* q تهذيب 1
 ~ پائند **tehzib:b ya:fta** madaniyatli, odobli
 تهذيب **tehzib:bi:** madaniyatga oid, madaniy; ~ اداره-
 madaniy muassasa; ~ پروگرام *m* madaniy
 dastur (*konsert vhk*)
 تهرابي **thera:pi:** *ms* so'zl davolash, terapiya
 تهرارہٹ **tharra:haT** *q* تهرارہٹ
 تهر تهر **thar-thar** qalt-qalt; ~ کانپا ~ qalt-qalt titramoq
 تهر تهرانا **tharthara:na:** o'z 1 titramoq, qaltiramoq;
 2 pirpiramoq
 تهر تهرارہٹ **tharthara:haT** *ms* 1 qaltirash; 2 pirpi-
 rash; 3 titrash
 تهرکانا **tharka:na:** o' raqsda oyoqlarni tapir-
 latmoq
 تهرکانا **thirakna:** o'z 1 raqsga tushmoq, oyoq va
 qo'llarni patir-putur o'ynatmoq
 تهرماس **tharma:s** *m* termos
 تهرماسیٹر **tharma:mi:Tar** *m* termometr
 تهرس نهس **tehes-nehes** buzilgan, vayron bo'lgan
 تهرماس **tharmas** *m* q تهرماس
 [تهرانا] **thaka:** [hu:a:] charchagan, toliqqan,
 horigan
 ~ مانده **thaka:-ma:Nda** horib charchagan
 تهرکانا **thaka:n** *ms* charchoq, horish, toliqish;
 ~ دور کرنا charchoqni tarqatmoq
 تهرکانا **thaka:na:** o' toliqtirmoq, charchatmoq
 تهرکانا **thaka:vaT** *ms* charchoq, hordiq; toliqish
 تهرکانا **thakna:** o'z charchamoq, toliqmoq, holdan
 toymoq

تهلکة **tehelka** *m* 1 vahima, sarosima; 2 shov-
 shuv; ~ پچا ~ shov-shuv ko'tarmoq; [odamlarni]
 sarosimaga solmoq, jonsarak q/q; ~ پچا ~ vahima
 (sarosima) bosmoq; shov-shuv ko'tarilmoq;
 to's-to'polon b/q
 تهمت **tehmat** *ms* tahmat (*erkaklar lozim o'rniga*
o'raydigan mato)
 تهمت **to'hmat** *ms* tuhmat, bo'hton
 تهر **tehmad** *q* تهمت
 تهرنا **thamna:** o'z 1 tur to'xtamoq, tinmoq; بارش
 ~ یومگ'یر تندی *yomg'ir tindi*; ~ درر تهر گیا *og'riq bosildi*
 تهرن *m* yelin
 تهنت **tehni:yat** *ms* qutlov; tabrik; olqish; ~ پیغام-
m tabrik maktubi
 تهرار **tehva:r** *m* bayram; shodiyona; ~ مانا ~
 bayram q/q
 تهرپنا **tho'pna:** o' 1 tiqishtirmoq, bo'yniga
 ortmoq, yelkasiga yuklamoq; 2 ayb, qo'yermoq
 تهررا **tho'Ra:** I 1 kam; ozgina; 2 bir oz, andak;
 ~ سا ~ ozgina, bir oz; ~ تهررا کرکے ~ oz-ozdan;
 asta-sekin; ~ آرام کرلو ~ bir oz damingni ol
 II (*yuklama*)? ~ ہے ~ وہ کوئی پچ ~ u yosh
 bola emas-ku;? ~ ڈرتا ہوں ~ men qo'rqib
 bo'pman!
 تهرکانا **thu:kna:** o' 1 tupurmoq; 2 maj
 nazar-pisand qilmaslik
 تهرمو **tho'm** *m* sarimsoq
 تهریٹر **thi:Tar** *m* teatr
 تهریس **thi:sis** *m* 1 dissertasiya; 2 avtoreferat
 تهریلا **theyla:** *m* to'rva, xalta; qopchiq; sumka
 تهرلی **theyli:** *ms* 1 kichkina xalta; to'rvacha;
 2 hamyon
 تهریا **tahiya** *m* azmu qaror; کرنا ~ bel bog'lamoq,
 ahd q/q
 تیار **taya:r** 1 hozir, shay; 2 tayyor bo'lgan,

pishgan, yetilgan; 3 *maj rozi*; a) کرتا -
 tayyorlamoq; b) pishirmoq; c) yasamoq;
 d) rozi q/q; u ishni qilishga
 tayyor (rozi); ovqat pishdi -
 شہہ taya:rshuda tur tayyorlangan,
 hozirlangan
 كرده taya:r-karda tayyolagan, shay qilgan
 تاری taya:ri: 1. 1 tayyorlov, tayyorlashga oid
 (mas majlisni); 2. ms 1 tayyorgarlik; 2 yasash,
 ishlab chiqarish; کرتا - (کی) tayyorlamoq,
 hozirlik ko'rmoq; هونتا - (کی) tayyorgarlik
 ko'rilmoq
 تیرا ti:tar m kaklik
 تیر ti:r m 1 yoy o'qi; 2 *maj chiziqcha*;
 # endi kech bo'ldi, g'isht
 qolipdan ko'chdi
 انماز ti:raNda:z yoydan o'g otuvchi, kamonchi
 تیرا tera: sening, seniki; # میرا کرتا -
 bahslashmoq
 تیراک teyra:k m suzuvchi
 تیراکی teyra:ki: ms (suvda) suzish
 تیرکش ti:rkash m q تیرکش
 تیرنا teyrna: o'z suzmoq
 تیرہ terah o'n uch
 تیز tez 1 o'tkir; 2 zehni; 3 jizzaki, jahldor; 4 tez,
 ildam; tez yurmoq; - چلنا -
 kuchaymoq; # بازار -
 avjiga chiqmoq; kuchayib
 ketmoq; کرتا - a) charxlamoq, o'tkirlamoq;
 b) *maj kuchaytirmoq, tezlashtirmoq, faol-
 lashtirmoq*
 رفتار tezrafta:r 1 tezyurar; 2 tez sur'atli,
 jadal; ترقی - tez sur'atlar b/n rivojlanish
 رفتاری tezrafta:ri: ms tezlik, sur'at
 تیزی tezi: ms 1 o'tkirlilik; keskirlik; 2 sezgirlik;
 donolik; 3 ildamlilik; 4 jizzakilik; -
 tezlik b/n,

darrov, darhol
 تیزاب teza:b m ishqor, kislota
 تیس ti:s o'ttiz; # مارخان - maqtanchoq; manman;
 quruq
 تیرا ti:sra: uchinchi
 تیرے ti:sre uchinchidan
 تیتق tayaqqun m P-n ishontirish
 تیل tel m 1 tur yo'g', moy; 2 neft; kerosin; -
 کچا -
 neft; - مٹی کا - kerosin; # کچا ہے -
 kuch ketdi, hayot oxirlashib qoldi
 تیردار telbarda:r neft va neft mahsulotlarini
 tashuvchi [kema, tanker]
 تیلگو telugu: ms telugu [ti]
 تیلی ti:li: ms cho'p; - دیسلانی کی gugurt cho'pi
 تیلی teli: 1 moy (yog')ga tegishli; 2 juvozkash;
 - کاتیل #
 3 moyfurush; 4 *maj isqirt, kir (odam)*;
 a) juda qattiq mehnat qiluvchi; b) o'ylamay-
 netmay (ko'rko'rona) biror ishni qilish (lug'
 juvozhining ho'kizi)
 تیردار tima:rda:r bemorga qarab turadigan
 تیردارکی ti:ma:rda:ri: ms 1 kasalga qarash;
 2 bemorning holidan xabar olish
 تیموریہ temu:riya Amir Temur va temuriylarga
 oid; - خانانہ xa:nda:ne-temu:riya m
 Temuriylar sulolasi
 تین ti:n uch
 تینتالیس teyNta:li:s qirq uch
 تینتیس teyNti:s o'ttiz uch
 تیندا taNdua: m qoplon
 تینوں ti:no'N uchchala, uchovlon
 تیر tevar m qosh; # پلنا - munosabatni
 o'zgartirmoq
 تیرہ teo'ha:r m H-n q تیرہ
 تیس teis yigirma uch
 تینم teiN kam uchun

ط

- ت Te *ms urdu alifbosidagi beshinchi harf*
- تاپ Ta:p *ms* 1 ot tuyog'i; 2 taqalarning taqir-tuquri
- تاپس Ta:ps *m* quloqqa qisib taqiladigan zirak
- تاپو Ta:pu: *m* H-n kichik orol
- تات Ta:T *m* 1 bo'yra, mato; 2 kanop; 3 jundan to'qilgan sholcha
- تارپېدو Ta:rpi:Do' *m* torpeda; کرتا ~ a) torpeda b/n hujum q/q; b) maj ichidan qo'pormoq, halaqit bermoq
- تارچ Ta:rch, To'rch *ms* fonar, fonus; ائیسٹرک ~ *ms* elektr fonari
- تارچ Ta:rchar, To'rchar *m* so'zl qiynoq, azob
- تارگت Ta:rgiT *m* so'zl 1 reja; 2 maqsad
- تاس Ta:s, To's *m* qur'a, chek; کرتا ~ qur'a tashlamoq
- تاسک فورس Ta:sk fo'rs *m* biror masalani ko'rib chiqish yoki hal qilish uchun (mutaxassislardan) tuzilgan guruh
- تاک Ta:k, To'k *ms* so'zl gap, suhbat
- تالک Ta:lk *m* talk, kukun
- تال Ta:l I *ms* taxta - yog'och ombori
..... II *m* cho'zish, orqaga tashlash
- تال-ما To'l *m* jift 1 paysalga solish, cho'zish; 2 bahona; uzr; کرتا ~ a) sudramoq, galga solmoq, cho'zmoq; b) o'zini (chetga tortmoq) olib qochmoq
- تالنا Ta:lna: *o'* kechiktirmoq, qoldirmoq, keyingga surmoq; paysalga solmoq
- تالی Ta:li: *ms* qo'ng'iroqcha (hayvon bo'yidagi)
- تالک توئی Ta:mak To'i: *ms* taxmin, faraz; تاک توئیال مارنا # a) taxmin q/q; b) urinmoq, say-harakat q/q

- تانت Ta:NT *ms* 1 boshning qoq uchi; 2 bosh suyagi
- تانتا Ta:NTa: 1 kuchli, baquvvat; 2 puxta, qattiq
- تانسلو Ta:nsilz *m* tomoq bezlari
- تائیک Ta:nik, To'nik *m* bardam (tetik) qiluvchi, darmon beruvchi suyuqlik, to'nik
- تائیکا Ta:Nka: *m* 1 chok, ko'klash, qaviq (bitta baxyasi); 2 ulangan joy, chok; تائیکه تائیکه
a) tikmoq; b) ulamoq, payvand q/q
- تائیکنا Ta:Nkna: *o'* 1 tikmoq, ko'klamoq; 2 yamamoq, ulamoq
- تائینگ Ta:Ng *ms* oyoq; # یس جانا (نوٹا) ~ oyoqdan qolmoq, charchamoq; ائزتا ~ (شس) a) aralashmoq; b) to'sqinlik q/q
- تائینگنا Ta:Nгна: *o'* osmoq, ilmoq
- تائینگا Ta:Nga *m* ikki g'ildirakli arava, izvosh aravakash, izvoshchi
- تاور Ta:var *m* minora, burj, mezon
- تایپ Ta:yp I *m* tur, qism, nav
.....II *m* shrift, bosma
- تایپ رائٹر Ta:yp ra:yTar *m* yozuv mashinkasi
- تایپ رائٹنگ Ta:yp ra:yTING *ms* mashinkada (yozish) ishlash
- تایپ کاری Ta:yp ka:ri: *ms* q تایپ رائٹنگ
- تایپسٹ Ta:ypisT *m* yozuv mashinkasida ishlaydigan shaxs, mashinistka
- تایپنگ Ta:ypiNg *ms* q تایپ رائٹنگ
- تایٹل Ta:yTal *m* 1 nom (mas kinoda), sarlavha; 2 unvon (mas chempion); 3 muqova varag'i
- تایز Ta:yar *m* g'ildirakka kiydiriladigan rezina pokrishka, shina,
- تایکل Ta:yl *m* kafel (h/da تائیکل)
- تایلت Ta:yleT *m* hojatxona, tualet
- تایم Ta:ym *m* 1 vaqt; 2 soat; ی. ~ soat

mexanizmlı bomba; 3 sport taym
 آؤت -Ta:y m a:uT m taym aut (oyin
 paytidagi tanaffus)
 پیرس -Ta:y m pi:s ms budilnik
 تئیل -Ta:y m Teybl m jadval; kun tartibi
 تائینگ Ta:y miNg ms so'zl 1 ish vaqti; 2 vaqt
 تاؤن Ta:un m shaharcha
 شپ -Ta:unship m shahar rayoni, mavze
 تائی Ta:y ms galstuk, bo'yinbog'; گالستوک - galstuk
 (bog'lamoq) taqmoq
 تائفایند Ta:yfa:yD 1. terlamaga oid; 2. m terlama
 تائل Ta:y q تائل
 تب Tab m cho'milish vannasi
 تیب Tibba: m tepalik, do'nglik; qumtepalik
 تپ Tip, Tips ms choychaqa; دینا -
 choypuli bermoq
 تپا Tappa: m biror narsaning yerga yoki
 devorga urilishi (mas ko'ptok); کھاتا - biror
 joyga urilmoq
 تپنا TapTapa:na: o'z q تپنا
 تپک Tapak ms 1 biror suyuqlikning tomishi
 (ovozi); 2 maj yomg'ir
 تپکا Tapka:na: o' siqib suvini chiqarmoq;
 tomizmoq
 تپکنا Tapakna: o'z tommoq, tomchilamoq
 تاٹا TaTTa: m 1 parda, darparda (mas
 bambukdan qilingan); 2 xilvat joy
 تاٹتو TaTTu: m 1 poni; to'pichoq ot; 2 xachir;
 # yaxshi otga bir qamchi
 تاٹتو'لنا TaTTo'lna: o' paypaslamoq; ushlab
 ko'rmoq; paypaslab qidirmoq
 تاٹتی TaTTi: ms 1 parda, niqob, to'siq; 2 pana
 joy; # buzuqlikka
 pinhona berilmoq; 3 tahoratxona; گلتا - qistab
 qolmoq; کرنا - yozilmoq, xojat chiqarmoq

تچ Tach m so'zl pardozi, ishlov, sayqal;
 دینا - pardoziy ishlarini tugatmoq
 تخنا Taxna: m bo'g'in, to'piq suyagi
 تیدی Tiddi: ms chigirtka
 تراپیکال Tra:pikal, Tro'pikal tro'pikka oid, tro'pik
 (mas o'simlik)
 ترافلک Tra:flik q تریفلک
 ترافی: Tro'fi: ms sport 1 sovrin, kubok;
 2 birinchilik musobaqasi; 3 o'lja
 تروفی: kap ms q تروفی
 تراولر Tro'ler m baliq tutadigan kema, trauler
 ترالی Tra:li: ms aravacha, qo'l aravacha
 ترالی:bas Tro:li:bas m trolleybus
 ترام Tra:m ms tramvay
 تاررانا: Tarra:na: o' 1 qurillamoq, vaqillamoq (mas
 baqa); 2 maj vaysamoq, javramoq
 ترانسپرنسی Tra:Nsperensi: ms 1 diapozitiv
 (fo'to'plyo'nkaga oid); 2 transparent; 3 tur
 ochiqlik, shaffoflik; aniqlik; 4 oshkoralik
 ترانسپورت Tra:nsp'o'rT 1. yuk tashuvchi; ~ طیاره m
 transport tayyorasi; 2. m transport
 ترانسپرنسنت Tra:nspereNT so'zl 1 tiniq, shaffof;
 2 aniq, yaqqol, ochiq
 ترانسپرنسی Tra:nspereNSi: q ترانسپرنسی
 ترانسفارمر Tra:nfsa:rmar m transformator
 ترانسسٹر Tra:nsisTar m 1 tranzistor;
 2 tranzistorli radio
 ترانسفر Tra:nfsar m so'zl o'tkazish, jo'natish
 (mas pul)
 ترانسلی Tar:nsleyTar m so'zl yozma tarjima
 qiladigan kishi
 ترانسمی:Tar m peredatchik, uzatuvchi
 moslama
 ترانسمی:shan Tra:nsmi:shan m bir joydan ikkinchi
 joyga (o'tkazish) uzatish

لائن ~ **Tra:nsmi:shan la:yn** *m* elektr o'tkazish liniyasi

تراي **Tra:y** // so'zl کرتا ~ 1 harakat q/q, urinmoq; 2 kiyimni o'lchab ko'rmoq

ترايل **Tra:yal** *m* 1 sinov, tekshiruv; tergov; 2 tanlash, saralash bellashuvi (*mas* sportda)

ترباين **Tarba:yn** *m* turbina

تاربو **Tarbo'** *old* turbinaga tegishli

تاربو جنرېتر **Tarbo' jenereTar** *m* turbogenerator

تاربو جيٽ (انجن) **Tarbo' jeT (injan)** *m* turboreaktiv, dvigateli

تاربيوئال **Tarbyu:nal** *m* harbiy tribunal, favqulodda sud organi

تراپل **Tripl** uch (martali) marta

ترينمنٽ **TriTmenT** *m* so'zl 1 davolash; 2 muolaja; 3 ishlash, ishlov berish; 4 muomala, munosabat

تراسٽ **TrasT** *m* 1 ishonch; 2 trest (*birlashma*)

تراک **Trak** *m* yuk mashinasi, gruzovik

ترمينال **Tarminal** *m* terminal (*mas* avtobuslar turar joyi)

ترانک **TraNk** *m* 1 chamadon; 2 sandiqcha

تراک کال **TraNk ko'l** *m* shaharlararo (telefon) so'zlashuv

تروپ **Tru:p** *m* ijodiy guruh, truppa (*mas* teatrd)

تري **Tre** *m* likopcha

ترينمنٽ **Tri:TmenT** *q* ترينمنٽ

تريجېڊي **TrejeDi:** *ms* 1 fojia; ayanchli (mudhish) voqea; 2 falokat

تريڊ **TreyD** 1. savdoga oid; كمشنر ~ *m* savdo vakili (*xorijda*); 2. *ms* savdo-sotiq, tijorat

تريڊر **TreyDer** *m* tojir, savdogar, sotuvchi

تريڊنگ **TreyDing** 1. savdoga oid; پارتنر ~ *Treyding pa:rTner* *m* savdodagi sherik;

2. *ms* savdo, tijorat

تريڊ يونين **TreyD yu:nen** *ms* kasaba uyushmasi

تريس **Treys** so'zl iz, nishon; کرتا ~ topmoq, aniqlamoq

تريفک **Trefik** *m* yo'l harakati

تريفک پوليس **Trefik po'li:s** *ms* avtomobil inspeksiya siyasi

تريفک سگنال **Trefik signal** *q* تريفک لائت ~ سگنال

تريفک جام **Trefik ja:m** *m* yo'l harakati tiqilinch bo'lib qolishi

تريفک لايٽ **Trefik la:yT** *ms* sveto'fo'r

تريفک **TrekT** *ms* trayektoriya (*biror narsaning* harakat yo'li)

تريفک تراکٽور **TrekTaR** *m* traktor

تريفک تراکٽور سازکارخانه **TrekTaR** *m* traktorsozlik korxonasi

تريفک سوت **Trek su:T** *m* sport trenirovka kiyimi

تريفلر **Treyler** I *m* prisep, avtoprisep, treyler II *m* kinoafisha, film haqidagi reklama

تريفن **Treyn** *ms* poyezd; ~ مېنجر *m* passajir poyezdi; ~ لوکل *m* mahalliy poyezd

تريفنڊ **TrenD** *m* oqim, mayl, yo'nalish

تريفنڊ **Treynd** so'zl malakasi oshgan; o'rgatilgan

تريفنر **Treynar** *m* 1 trener; mashq qildiruvchi mutaxassis; 2 hayvonlarni o'rgatuvchi

تريفننگ **TreyniNg** 1. mashq, o'rgatish; كيمپ *m* harbiy tayyorlash lageri; 2. *ms* mashq qilish, mashg'ulot, trenirovka; لياٽ ~ mahorat (malaka) oshirmoq, o'rganmoq

تريفول **Treyval** *m* so'zl sayohat, safar

تريفول ايجنٽ **Treyval ejanT** *m* turistik firmaning vakili

تاس **Tas** // سے مس نہ ہونا // miq etmaslik, lom - mim demaslik

تاسو **Tasve** *m* yoig'ondakam ko'z yoshi,

yolg'on yig'i; بها~ yolg'ondan yig'lamoq
Tishu: *ms* 1 salfetka; 2 hojatxona qog'ozi
Tifan *m so'zl* yengil tushki ovqat
Tika:na: *o'* joylashtirmoq, joy bermoq
Tika:o *m* 1 turar (yashash) joyi; to'xtash;
 2 barqarorlik
TikaT *ms* 1 chipta, patta; 2 kartochka,
 varaqa; 3 hujjat, talon; 4 marka; 5 partiya
 mandati (*mas* saylovda)
 ~ *m* kassa, chiptaxona
 ~ **TikaT chekar** *m* kontrolyo'r, chipta
 tekshiruvchi
TikTiki: *I ms* tikilib qarash; باندھ کردیگنا~
 tikilib qaramoq
 *II ms* esk jinoyatchini kaltaklash
 uchun bog'lab qo'yiladigan ustun
Takkar *ms* 1 to'qnashish; 2 janjal, mojaro;
 3 turtish, itarish; 4 zarba; مارا~ itarib yubor-
 moq
Takra:na: *o'* to'qnashmoq, urishib
 ketmoq; bir-biriga zid b/q
Takra:o' *m q* تصادم
TukRa: *m* bo'lak, parcha, kesik; کٹڑے کٹڑے
 کرنا *chilparchin* q/q
TukRi: *ms* 1 bo'lakcha, kichkina parcha;
 2 to'da, guruh, grupp
Taksa:I *ms* 1 zarbxona (*qog'oz, tanga-
 chaqa pul chiqaradigan korxonona*); 2 namuna,
 nusxa; me'yor, no'rma
Taksa:li: 1 zarbxonaga oid; 2 hammaga
 maqbul bo'lgan, namunali; ~ زبان~ sof (*juda
 to'g'ri*) til
Takna: *o'z* tikilib qaramoq
Tikna: *o'* to'xtamoq; qo'nmoq
 ~ **Takni:kal** *texnikaviy, texnikaga oid; ~ تعليم*

ms texnikaviy ta'lim (*h'ida q تېخنىكىل*)
Tikiya: *ms tib* 1 tabletka; 2 hapdori,
 yumaloq dori
Tighalna: *o'z kam q* تېخنا
TalpaT *ms* ag'dar-to'ntar, ostin-ustun;
 tos-topolon
Talna: *o'z* 1 orqaga surilmoq, qoldirilmoq;
 2 qaytmoq (*so'zidan*)
Temprechar *m* temperatura, harorat; isitma
TimTima:na: *o'* miltillamoq, yilt-yilt q/q
Tan *m* to'nna
Tin *m* tur tunuka, banka
Tund *m* 1 cho'ltoq (to'mtoq) qo'l; 2 kesilgan
 shox vhk
TiNDa: *m* 1 patison; 2 mayda bodring
TuNDa: qo'lsiz (qo'li kesilgan) odam
TenDar *q* تېنڈر
TaNki: *ms tur* bak, suyuqlik saqlanadigan
 idish (*mas* benzin)
TaNgnA: *o'* 1 osilmoq; 2 ilinib turmoq
Tua:yleT *q* ٹوايلىك
To'p I *m* katta bosh kiyim; shlyapa
 *II so'zl* eng oliy, yuqori (*mas* moda)
To'pi: *m* bosh kiyim; # اچھالانا (كى)~
 badnom q/q, obro'sini to'kmoq; بدلانا~ do'st b/q;
 ~ بدل بھائی qalın do'st
Tu:th peisT *ms* tish pastasi
Tu:T *ms q* ٹوٹ پھوٹ
Tu:T-phu:T *ms jft* 1 sinish, bo'linish,
 parchalanish; 2 parcha, bo'lak; 3 tartibsizlik
Tu:Ta: 1. buzilgan; parchalangan, singan,
 siniq; 2. *m* maj bo'lak
Tu:Ta:-phu:Ta: *jft* 1 singan, buzilgan,
 parcha-parcha bo'lgan; 2 *maj* tilni chala
 (nomukammal) bilish (نۇنۇ پھوٹی زبان)

To'Ta: *m* 1 yetishmovchilik, tanqislik; 2 nuqson, ziyon
To'Tka: *m* 1 jodu, sehr, kuf-suf, issiq-sovuq; 2 tumor
To'rchar *q* ئورچ
Tu:Tna: *o'* 1 sinmoq, bo'linmoq, parchalanmoq; 2 tashlanmoq; 3 hujum q/q; yopirilmoq (پر); 4 *maj* kamaymoq; گىرى ئوت گىرى ئوت qaytdi
Tu:izm *m* sayyohlik, turizm
Tu:risT 1. sayyohlik; 2. *m* turist, sayyoh
Tu:rna:menT *m* birinchilik, musobaqa, turnir; ~ فۇتبول futbol birinchiligi
Tu:ri:zm *m q* ئورازم
To'k *ms* to'siq; xalaqit, xalal
To'ka: -Ta:ki: *ms* xalal, to'siq
To'k-Ta:k *q* ئوك توك
To'kra: *m* savat; kajava
To'kri: *ms* savatcha
To'kan *m* 1 ramz; 2 belgi, alamat; 3 jeton
To'kan isTra:yk *m* ogohlantiruvchi ish tashlash
To'kna: *o'* 1 bo'lmoq, kesmoq, gapni burmoq; 2 to'xtatmoq (*gapda*)
Tu:l *so'z'l* *m* asbob-uskuna, instrument
To'la *m* 1 to'plam, to'p; 2 to'da, uyum
Tu:l Teks *m* olib o'tiladigan molga va yo'l haqiga solinadigan soliq
To'li: *ms* gruppa, guruh, otryad, brigada, dasta
Tu:NTa: 1 bambukming bir bo'lagi; 2 *q* ئوتا
Tu'NTi: *ms* 1 kran, jo'mrak, tumshuq; 2 *maj* burun
To'nsilz *q* ئانسىلر
To'h *ms* izlash, qidirish; ~ ئىش qidirmoq,

topmoq, aniqlamoq
Tha:Th *m q* ئىش ئىش
Tha:Th-ba:Th *ms* hashamat, dabdaba; serhashamlik; ~ رىشا yaxshi (farovon) yashamoq
Tha:kur *m* 1 zamindor, katta yer egasi; 2 xo'jayin (*hindularda*)
Tha:Nsna: *o'* tiqmoq, to'ldirmoq (*h/da* ئۇسنا)
Tha:nna: (Tha:n lena:) *o'* 1 ahd (qaror) q/q; 2 biror narsaga puxta azm q/q
Thap 1 to'xtab qolish; 2 *maj* shol bolish; ~ يولگى ish taqa-taq to'xtab qoldi
Thappa: *m* 1 muhr, shtamp; 2 iz, bosilgan narsaning izi; ~ ئىش a) muhr bosmoq; b) iz qoldirmoq
ThiTakna: *o'* turgan joyda qotib q/q; birdaniga to'xtamoq
Thatha: *m* hazil-mutoyiba; mazah; ~ ئىش birovning ustidan kulmoq; ~ ئىش masxaraboz, qiziqchi
ThiThar *ms* qaltirash, titrash (*sovuqdan*)
ThiThran *ms q* ئىش
ThiTharna: *o'z* muzlamoq, sovuq qotmoq
ThuDDi: *q* ئىش
Tharra: *m* sifati yomon qo'lbola sharob
Thirna: *o'* muzlamoq, sovuq yemoq
Thas 1 dangasa; sust; imillagan; ~ ئىش *m* sudralgan odam; 2 aqlsiz, anqov, esi past; 3 beso'naqay
Thasa: **Thas** liq to'la
Thusa:na: *o'* liq to'ldirmoq, tiqishtirmoq
Thusna: *o'* liq to'la (tiqin) b/q; tiqilib ketmoq

ٹھکانا **Thika:na:** *m* 1 ishlash (turar) joyi, uy;
ٹھکانے گانا ~ سنجیانا ~ joylashmoq, o'rnashmoq; ٹھکانا
joy-joyiga qo'ymoq; 2 baza (*mas* harbiy)

ٹھکانا **Thika:na** *q* ٹھکانا

ٹھکرانا **Thukra:na:** *o'* 1 rad (inkor) *q/q*;

2 toptamoq, oyoq osti *q/q*

ٹھکنا **Thukna:** *o'z* 1 qoqilib ketmoq, qoqilmoq;

2 do'pposlanmoq; 3 ziyon ko'rmoq;

4 jazolanmoq

ٹھگ **Thag** *m* 1 *o'g'ri*; 2 tovlamachi, muttaham,
qallob; 3 yo'l to'sar; # ~ یاری uchiga chiqqan
muttaham

ٹھگنا **Thagna:** *o'* aldab (jinni qilib) shilib ketmoq,
ialamoq, *o'g'irlamoq*

ٹھگنی **Thaggi:** *ms* 1 bosqinchilik, *o'g'rilik*; 2 talon-
taroj, shilish, 3 tovlamachilik, muttahamlik

ٹھلانا **Tehla:na:** *o'* sayr qildirmoq, aylantirmoq,
o'ynatib yurmoq

ٹھلنا **Tehlina:** *o'z* sayr (tomosha) *q/q*, kezmoq,
aylanib yurmoq

ٹھمری **Thumri:** *ms* thumri, qisqa lirik kuy,
qo'shiq (*unda ayol tomonidan muhabbat izhor
qilinadi*)

ٹھنا **Tehna:** *m* katta shox

ٹھنٹھ **ThuNTh** *m* qurib qolgan daraxt; to'nka

ٹھنڈ **ThaND** *ms* sovuq; گنا ~ sovuq qotmoq

ٹھنڈا **ThaNDa:** salqin; sovuq; ٹھنڈے دل سے

sovuqqonlik *b/n*; کرنا ~ a) sovutmoq;

b) tinchlantirmoq; c) muqaddas narsani

ko'mmoq; # ~ bosiq odam

yengib chiqadi (*lug'* qizigan temirni sovuq

temir kesadi)

کپڑا ~ *m* ip gazlama

ٹھنڈائی **ThaNDa:i:** *ms* salqin ichimlik

ٹھنڈک **ThaNDak** *ms* 1 salqinlik; shabada; پڑنا ~

salqin tushmoq; 2 *maj* tinchlanish;

3 osoyishtalik

ٹھنڈی **ThaNDi:** *ms* chechak

ٹھنڈکانا **Thanakna:** *o'* *g'ingshimoq*, hiqillamoq
(*bolalar*)

ٹھنی **Tehni:** *ms* shoxcha, novda

ٹھوڑی **Tho'Ri:** *ms* dahan; # ہاتھ دھر کر بیٹھنا ~

xomush (*g'amgin*) bo'lib o'tirmoq

ٹھوس **Tho's** 1 mustahkam, mahkam, puxta;

qattiq (narsa); 2 konkret, ravshan; جواب ~ aniq
javob

اقدامات ~ *m* jiddiy (amaliy) choralar

فیصلہ ~ *m* aniq (qati'y) qaror

ٹھوک **Tho'k** *m* zarba; turtish

ٹھوکر **Tho'kar** *ms* qoqilish, oyoqdan chalinish;

کھانا ~ *tur* qoqilib ketmoq

ٹھوکانا **Tho'kna:** *o'* 1 qoqmoq, qoqib kirgizmoq,

mahkamlab yopmoq; 2 *maj* barham bermoq,
chek qo'ymoq

ٹھونٹھ **Thu:NTh** *q* ٹھونٹھ

ٹھونٹھنا **Thu:Nsna:** *o'* tiqmoq, to'ldirmoq,

tiqishtirmoq, zo'rlab surmoq; kiritmoq

ٹھہرانا **Thehra:na:** *o'* 1 to'xtatmoq; 2 aniqlamoq;

bilmoq, [deb] hisoblamoq; 3 e'l on *q/q*

ٹھہراؤ **Thehra:o** *m* 1 turg'unlik; 2 barqarorlik;

3 to'xtash

ٹھہرنا **Theherna:** *o'z* 1 to'xtamoq; ushlanmoq;

2 o'rnashmoq, turmoq; ٹھہرے ہوئے انداز میں sekin,
shoshmasdan, ohista

ٹھٹ **TheT** toza, asl, haqiqiy

ٹھہرنا **Therna:** *o'* *q* ٹھہرنا

ٹھیس **Thes** *ms* 1 zarba, urilish; 2 nuqson,

ziyon; پچھتا ~ ziyon (putur) yetkazmoq

ٹھیک **Thi:k** 1 chin, aniq, rost, haq; 2 to'g'ri,

yaxshi; کرنا ~ a) to'g'rilamoq; b) yaxshi (to'g'ri)

q/q; ~ to'g'ri kelmoq (*mas* kiyim); ~ vaqtida; ~ vaqta; ~ vaqti; ~ vaqti? ~ to'g'rimi ?
 2 ~ Thi:k-Tha:k *jft* q 2 ~ Thi:k-Tha:k
 Thi:kra: *m* 1 parcha, bo'lak; 2 *maj* kichik (arzimagan) narsa; 3 gadoyning tilanchilik, kashkul idishi
 Theka *m* ijara, arenda, kontrakt; ~ (ka) ~ lina
 a) ijaraga olmoq; b) [o'ziga] mas'uliyatni olmoq
 Thekeda:r *m* 1 pudratchi, ijarachi; 2 javobgar, mas'ul
 Thela: *m* orqasidan itarib ketadigan aravacha
 Theleva:la: *m* meva, ko'katni aravachada sotib yuruvchi
 TheNga: *m* 1 qo'lining katta barmog'i; 2 *maj* kaltak; # do'kha ~ qo'p a) rad etmoq, yo'q demoq; b) jahlini chiqarmoq, "mana senga; # zamon-zorniki ~ zardost ka ~ sarp #
 Ti: *ms* choy
 Ti:po'T *m* choynak
 Ti:pa:rTi: *ms* yengil ziyofat, "bir piyola choy"
 Ti:seT *m* choy servizi
 Ti:ko'zi: *ms* choy tez sovib qolmasligi uchun choynak ustiga kiydiriladigan g'ilof
 Teybl *ms* 1 stol; 2 jadval
 TebleT *ms* tabletka (*dori*)
 Ti:bi: *ms* sil (*kasallik*)
 Teyp *m* 1 lenta, tasma; 2 magnit lentasi; ~ karna ~ magnit lentasiga yozmoq
 Teyp riko'rDar *m* magnitofon
 Ti:p-Ta:p *ms* oro berish, zeb-ziyat; 2 so'zl shukuh, hashamat; 3 go'zallik, chiroy
 TeTua: *m* hiqildoq, tomoq, halqum; ~ karna

tomog'idan bo'g'moq
 Ti:char *m* oqituvchi, ustoz
 TichiNg 1. o'qitadigan; 2. *ms* o'qitish, o'rgatish
 Ti:chiNg eyDz *m* o'qitishning texnik vositalari (*magnitofon, video vhk*)
 Ti:rna: *o'* 1 chaqirmoq, chorlamoq, qichqirmoq; 2 chalmoq; xirgoyi q/q
 TeRha: 1 qiyshiq, egri, qing'ir; 2 bebosh, o'jar, sarkash; ~ og'ir kunlar; ~ ko'z olaytirmoq, jahl b/n qaramoq
 TeRha:pan *m* egrilik, qiyshiqlik
 TeRha:meRha: *jft* qiyshiq-qing'ir, egri-bugri
 Ti:s *ms* og'riq, dard; ~ sanchib (marata) ~ sanchib o'g'rinoq
 TesT *m* sinov; test; zacho't
 TesT mech *m* sport musobaqa, o'yin; birinchilik uchun match
 Ti:sherT *m* erkaklarning yengi kalta ko'ylagi
 Ti:ka: *m* 1 hindu tika (*pehonaga* qo'yiladigan nishon. *Yaxshilik alomati* hisoblanadi); 2 tib emlash; ~ lga ~ emlamoq; 3 iz, dog'; tam'ga
 Teyko'f *m* 1 samolyotning ko'tarilishi; 2 *maj* ishni boshlab yuborish
 Ti:kri: *ms* kam tepalik, balandlik, do'nglik
 Teks *m* soliq, o'lpon, boj, nalo'g; ~ (ke) ~ (ke) soliq to'lamoq
 Teks dihanda (~guza:r) soliq to'lovchi
 TeksT *m* matn, tekst
 TeksTbuk *ms* darslik, qo'llanma

تېكس تا: يل TeksTa:yl to'qimachilik, tekstilga oid;

مل - m to'qimachilik fabrikasi

تېكسى Teksi: ms taksi; كرنا (ليئا) ~ taksi olmoq;

taksiga o'tirmoq

تېكنا: لو'جي Tekna:lo'ji: ms 1 texnologiya; 2 texnika

تېكنا: لو'جي: كال Teknal'o'ji:kal texnikaga (texnologiya-ga) oid

تېكنيك Teknik 1. texnikaviy; 2. m texnika,

mahorat

تېكنيك: شان Tekni:shan m texnik xodim

تېكنيك: ك Tekni:k q تېكنيك

تېكنيك: كال Tekni:kal texnikaviy; كالچ ~ m texnika

kolleji

تېلا: ل Ti:la: I m tepalik, do'nglik

..... II m umurtqa

تېلر Teylar m chevar, tikuvchi

تېلر: نگ TeylariNg ms so'zl tikuvchilik, chevarlik

تېلکس Teleks m teleks

تېلنت Telent m so'zl iste'dod, talant, qobiliyat

تېلى Ti:li: m tili daraxti (qizil va juda qattiq)

تېلى Teli: old tele - (ingliz so'zlarida ishlatiladi)

تېل: پرنتر Teli: printar m teletayp

تېل: كا: ست Teli:ka:st m teleko'rsatuv

تېل: گرام Teli:gra:m m telegramma;

رواندر كرنا (بھيچنا) telegramma yubormoq

تېل: ماوا: سىلا: ت Teli: mava:sila:t m telekommuni-

katsiya, telealoqa

تېل: وي: زھان Teli:vi:zhan m 1 televideniye, oynai

jahon; 2 televizo'r

تېل: فون Teli:fo'n m telefo'n

تېل: فون ا: پره تار Teli:fo'n a:preTar m telefo'nist

تېل: فون ا: كسھنچ Teli:fo'n iksheNj m telefon stansiyasi

تېل: فون بۇ: تھ Teli:fon bu:th m telefon budkasi

تېم Teym m sozl q تائم

تېم Ti:m ms 1 komanda, dasta; 2 to'p, to'da

تېمپرهچر Temprechar m q تېمپرهچر

تېم: تا: م Ti:m-Ta:m ms dabdaba, hasham,

bashanglik

تېنت TenT m chodir; shiypon; soyabon

تېندار TenDar m tender, talabnoma (biror ishni

bitirish yoki mol b/n ta'minlash uchun

qilinadigan e'lon)

تېنىس Tenis m tennis

بال ~ Tenis bo'l m tennis to'pi

بېت ~ Tenis beT m tennis raketkasi

كورٹ ~ Tenis ko'rT m tennis maydoni (ko'rti)

تېنشان Tenshan m tanglik, keskinlik, jiddiylik

تېنك TeNk I m harb tank

..... II m hovuzcha; 2 bak, sisterna

(suyuqlik yoki gaz solinadigan katta idish)

تېنكار TeNkar m tanker (suyuqlik tashiydigan

suv kemasi)

تېنگو TeNgo' m tango raqsi

تېوب Tyu:b m 1 quvur, truba; 2 shiha, kamera;

3 tyubik (mas krem)

تېوب: لا: ي Tyu:b la:yT ms kunduzgi yoritish

lampasi

تېوب: بول Tyu:bvel m 1 suv quvuri, vodoprovod;

2 burg'ilangan quduq

تېوتار Tyu:Tar m repetitor (biror fandan yordam

ko'rsatuvchi o'qituvchi)

تېوشان Tyu:shan ms 1 shaxsiy ravishda o'qitish,

dars berish; 2 repetitorlikka olinadigan pul

تېومر Tyu:mar m tib o'simta, o'sma

تېون Tyu:n // كرنا ~ sozlamoq, to'g'rilamoq (mas

radio to'lqiniga)

تېون: نىگ Tyu:niNg ms sozlash, tog'rilash (mas

motorni)

تېوي Ti:vi: q تېلويژن

تيار گيس Tiar ges m ko'z yoshlantiruvchi gaz

ث

ث **sa, se** *ms urdu alifbosidagi oltinchi harf; abjad hisobida besh yuz raqamini bildiradi*

ثابت **sa:bit** 1 qaror topgan, belgilangan; 2 butun, sinmagan, sobit; كرتا ~ tasdiqlamoq; بوئا ~ isbotlanmoq

قدى ~ **sa:bit qadmi:** *ms sobitqadamlik, matonat*

ثاقب **sa:qib** *m yorqin (porloq) yulduz, meteor*

ثالث **sa:lis** *m* 1 hakam, arbitr, sudya; 2 vositachi, o'rtada turuvchi (uchinchi) odam

لساناً **sa:lisan** *P-n* uchinchidan

ثالى **sa:lisi:** *ms* 1 arbitraj; hakamlar sudi (muhokamasi); 2 vositachilik; oraga tushish

ثانى **sa:nvi:** 1 ikkinchi; 2 ikkinchi darajali
تعليم ~ *ms* o'rta ta'lim

ثانى **sa:ni:** 1 ikkinchi; 2 ikkinchi darajali

ثانياً **sa:niya:n** *P-n* ikkinchidan

ثانية **sa:nia** *m* daqiqa, sonia, sekunda

ثبات **saba:t** *m* mustahkamlik, barqarorlik; o'zgarmaslik, sabot, qa'tiyat

ثبت **sabt** *P-n* yozilgan; o'yib yozilgan, kiritilgan; كرتا ~ yozmoq; muhr qoymoq; كرتا ~ qo'l qo'yimoq, imzo chekmoq

ثبوت **sabu:t** *m* dalil, isbot, tasdiq; توش كرتا ~ dalil keltirish, isbotlamoq

ثروت **sarvat** *ms P-n* boylik, davlat; اهل ~
ehle-sarvat *m* badavlat kishilar, boylar
مند ~ **sarvatmand** *P-n* tur boy, boy-badavlat; طبق ~ *m* davlatmand tabaqa; زبان ~ boy til

ثريا **suraya:** *m* Surayyo burjidagi oltita yulduzlar turkumi; 2 rivoj, o'sish

ثقافت **saqa:fat** *ms* madaniyat

ثقافتى **saqa:fati:** madaniy; تعلقات ~ *m* madaniy

aloqalar; مركز ~ *m* madaniy markaz

ثقات **saqa:lat** *ms kam yuq* 1 og'irlik, vazminlik; 2 talaffuzning qiyinligi; 3 maj ovqatni hazm qila olmaslik

ثقل **siql** *m* vazn, og'irlik; زمين ~ **siql-zami:n** *m* Yernig tortish kuchi

ثقة **siqa** *m P-n* e'tiborli (ishonchli) odam

ثقل **saqi:l** 1 tur vazmin, og'ir; singishi qiyin (mas ovqat); 2 qiyin; زبان ~ *ms* tushunishga qiyin (og'ir) til

ثلاث **sala:sa** uch; uchtadan iborat; uch tomonli

ثم **summ** *kam* keyin, so'ng

ثمان **sama:n** *m* kam sakkiz

ثمر **samar** *m* tur meva, hosil, samara
اور ~ **samar á:var** (~ baxsh) samarali, muvaffaqiyatli

ثمرا **samra:** *m* natija, oqibat; evaz

ثمرات **samara:t** *m P-n ko'p* 1 mevalar; 2 maj natijalar

ثمن **saman** *m* 1 narx, baho; qadr-qimmat

ثمين **sami:n** *kam* qimmatbaho

ثنا **sana:** *ms* ta'riflash, maqtash, hamdu sano

ثنائى **sana:l:** ta'riflaydigan

ثموت **sanvi:yat** *ms P-n* ikkita bo'lish; ikki taraflamalik; ikki narsaning qo'shilishi

ثواب **sava:b** *m* 1 isl [yaxshi ishevaziga tegadigan] savob; mukofot; (كارتا ~) حاصل كرتا ~ [yaxshilikning evaziga] savob olmoq

ثاخرت **sava:be- a:xirat** *m* oxiratda tegadigan savob

ثواب **sava:qib** *m ko'p q* ثاقب

ثور **saor** *m* 1 kam ho'kiz; 2 Savr (osmondagi ikkinchi yulduzlar turkumi va burji)

ج

- ج jim m, ms 1 urdu tili alifbosidagi yettinchi harf; abjad hisobiga ko'ra uch raqamini ifodalaydi; 2 Saraton burji va uning belgisi
- جا ja: I ms o'rin. joy; جا~ har joyda (yerda); نماز~ ms joynamoz; نئے پیدائش~ ja:e-peyda:ish ms tug'ilgan joy; نئے واردات~ ja:e va:rda:t ms voqea sodir bo'lgan joy
- II bor. jo'na (buyruq mayli)
- جاپ jo'b m so'zl ish, xizmat, yumush; کرت~ ishlamoq, xizmat q/q
- جاہر ja:bir m jabr qiluvchi, zolim, mustabid
- جانب~ ja:bira:na istibdodga asoslangan (mas qonun)
- جاپانی ja:pa:ni: 1. yapon, Yaponiyaga aloqador; زبان~ ms yapon tili, 2. m, ms yaponiyalik
- جادو ja:du: m 1 sehrgarlik, sehr-jodu; 2 maftunkorlik, fusunkorlik; 3 ko'z bog'lovchilik
- گر~ ja:du:gar m 1 sehrgar, afsungar, fusunkor; 2 fokuschi, ko'z bog'lovchi
- گری~ ja:du:gari: ms 1 sehrgarlik, jodugarlik; 2 maftunkorlik, fusunkorlik; 3 ko'z bog'lovchilik
- گرنی~ ja:du:garni: ms sehrgar ayol; jodugar
- جادو ja:da m 1 yo'l, ko'cha; 2 tariqa, odat
- جاذب ja:zib 1 o'ziga tortuvchi, jozibali; 2 shimib oladigan; singdiruvchi; کاغذ~ m bosma (siyoh shimadigan) qog'oz
- جاذبیت ja:zibi:yat ms joziba, yoqimlilik, go'zallik
- چار ja:r m quvacha; banka (sopoldan yoki shishadan yasalgan)
- چارچ ja:rih m bosqinchi, agressor, tajovuzkor
- چارخانہ ja:riha:na 1 bosqinchilikka asoslangan, agressiv; 2 shiddatli (mas hujum)

جاریت ja:rihi:yat ms tajovuzkorlik, agressivlik, qo'poruvchilik

چاروب ja:ru:b m supurgi

کش~ ja:ru:bkash m farrosh, supuruvchi

کشی~ ja:ru:bkashi: ms farroshlik, supuruvchilik

جاری ja:ri: 1 hozirgi, davom etayotgan, shu kundagi; سال~ joriy yil; رهنما~ davom ettirmoq; رہنا~ davom etmoq; کرت~ joriy q/q; ہوتا~ a) joriy b/q (mas farmon); b) chiqmoq, nashr etilmoq (mas gazeta); 2 "davomi" (mas ikkinchi betda)

شده~ ja:ri:shuda 1 joriy (qilingan) etilgan;

2 kuchga kirgan

کرده~ ja:ri:karda joriy qiigan

وساری~ ja:ri:-o'-sa:ri: jft q جاری 1

جاڑا ja:Ra: m 1 qish, qattiq sovuq, ayoz;

2 bezgak (جاڑے کا بخار)

جاسوس ja:su:s m josus; ayg'oqchi, shpion

جاسوسہ ja:su:sa ms ayol ayg'oqchi

جاسوسی ja:su:si: ms 1 josuslik, ayg'oqchilik;

2 razvedka; سرزس~ m maxfiy xizmat; ناول~ m

detektiv roman; کرت~ josuslik (ayg'oqchilik)

q/q

جاگنا ja:g uThna: o'z q جاگنا اٹھنا

جاگرتی ja:griti: ms H-n tur uyg'onish, bedor

(sergak) bo'lish

دل میں~ ja:gazi:N joy olish, yashash; رہنا~ دل میں

yurakdan joy olmoq

جاگنا ja:gna: o'z 1 uyg'onmoq, uyqudan

turmoq; 2 bedor (sergak) b/q

جاگنگ jo'giNg ms so'zl yugurish, chopish;

xarch *m* 1 sarf, xarajat, xarj; اثمانا ~ (کا) a) xarajat q/q; b) xarajatni ustiga olmoq; **xarche-ro'zmarra** *P-n m* kundalik xarajat; 2 sarf bo'lish, ishlatish (*elektr vhk*)
xarcha: *m* so'zl q خرج
xarchna: *o'* kam sarf (xarj) q/q
xurd *old* kichik, kam
xurdbi:n *ms* 1 mikroskop, zarrabin; 2 lupa
xirad *ms* es, xush, aql
xirad afrozi: *ms* aql-farosat, donishmandlik
xargo'sh *m* quyon
xurram xursand, shod (*h/da q خوش-د*)
xurma: *m* kam xurmo (*meva*)
xuru:j *m P-n* 1 chiqish joyi; tashqariga

chiqish; 2 lashkar tortish; 3 isyon, qo'zg'olon
xari:d *ms* sotib olish, xarid qilish
xari:do'-faro'xt *ms jft* oldi-sotti; savdo-sotiq, tijorat
xari:da:r 1 xaridor, sotib oluvchi; 2 mijoz, obunachi
xari:da:ri: *ms* 1 sotib olish; کی قیمت ~ xarid narxi; 2 obuna bo'lish (*mas ro'znomaga*)
xari:dna: *o'* sotib olmoq, xarid q/q
xari:f *ms* kuz; کی فصل ~ kuzgi hosil
xaza:N, xiza:N *ms* 1 kuz; موسم ~ **maosame-xiza:N** kuz fasli; 2 maj zavol, xazon, talafot
xaza:na *m* xazina, moliya, boylik; وزیر ~ **vazi:re-xaza:na** *m* moliya vaziri; سرکاری ~ davlat xazinasi
xaza:Nchi: *m* xazinachi, kassir
xaza:ni:, xiza:ni: kuzgi
xasa:ra *m P-n* 1 zarar, ziyon, defisit; خساره ~ defisit savdo (*mas eksportning importdan kamligi*)
xastagi: *ms* 1 xastalik, charchoq; خستگی ~ 2 tushkunlik, dilabgorlik
xasta: 1 kasal, qaddi bukik, dilabgor; خسته ~ 2 mo'rt, sinuvchan
xastaha:li: *ms* nochor ahvol; xomushlik
xusar *ms* qaynona
xasra *m* qizamiq
xushk 1 quruq; 2 qurib qolgan, suvsiz; خشک ~ 3 quruq, quritilgan (*meva vhk*); 4 quruq, rasmiy [odam]; 5 zerikarli
xushki: *ms* 1 quruqlik; 2 qurg'oqchilik; خشکی ~ 3 qurishganlik (*terining*)
xushu: *m P-n* itoatkorlik, bo'ysunish, خوش

mutelik
 خاصیت xassa:is *ms P-n ko'p q*
 خصوصاً xusu:san, xasu:san *P-n ayniqsa;*
 avvalo, xususan
 خصوصی xusu:si:, xasu:si: 1 maxsus, alohida;
 2 favqulodda, shoshilinch
 خصوصیات xusu:siya:t, xasu:siya:t *ms ko'p*
 خصوصیت *q*
 خصوصیت xusu:siyat, xasu:siyat *ms o'ziga xos,*
 xususiyat, fazilat; ~ ayniqsa, xususan
 خصومت xusu:mat *ms xush ko'rmaslik,*
 dushmanlik, xusumat
 خط *xat m 1 xat, maktub, noma; 2 dastxat,*
 yozuv; 3 chiziq
 ~ استوا *xatte-istiva: m Ekvator [chizig'i]*
 کشیدہ *xatkashi:da* tagiga chizib qo'yilgan
 جلی *xatte-jali: m qalin, yirik (yozuv) xat*
 مستقیم *xatte-mustaqi:m m to'g'ri (chiziq)*
 yo'l
 مخفی *xatte-munhani: m egri chiziq*
 و کتابت *xatto'-kita:bat m jft yozishma,*
 xatlar
 خطا *xata: ms 1 xato, yanglishish, kamchilik;*
 2 ayb, gunoh; کرنا ~ xato q/q, yanglishmoq,
 ayb q/q
 خطا *xitta: q خطہ*
 خطاب *xita:b 1 murojaat, nutq; 2 laqab, taxallus;*
 3 esk unvon (*katta xizmatlar uchun hukumat*
tomonidan berilar edi); ~ کرنا (*ے*) nutq
 so'zlamog, murojaat q/q
 خطاط *xatta:t m xattot, kalligraf*
 خطر *xatar m q خطرہ*
 ناک *xatrna:k 1 xavfli, xatarli, tahlikali;*
 2 tashvishli, xavotirli
 خطرہ *xatra m 1 xavf, qo'rquv, vahima, qo'rqinch;*

جان *bexatar, xavfsiz; 2 xavf-xatar;*
 خطرے میں ڈالنا *hayotini xavf ostida qoldirmog*
 خطوط *xutu:t I m ko'p xatlar, maktublar*
 *II m ko'p chek, chegara;*
 میں *muzokaralar doirasida*
 خطہ *xitta m 1 yerning bir qismi, maydon;*
 2 mintaq, hudud
 ~ امن *xittae-amn m tinchlik mintaqasi*
 خطیب *xati:b m va'zgo'y, va'zxon; xatib; ~*
 امام و *~*
 ima:mo'-xati:b *m imom va xatib (masjidda)*
 خیر *xati:r P-n yirik, talay, anchagina, ko'p;*
 ~ قوم *ms katta mablag'*
 خفا *xafa: xafa, norozi*
 خفت *xiffat ms 1 yengiltaklik; 2 kekkayish,*
 birovn mensimaslik; 3 kamsitish
 خفتگان *xuftaga:n ko'p q خفتہ*
 خفته *xufta kam uxlayotgan, uyqudagi*
 خفگی *xafgi: ms xafagarchilik, norozilik*
 خفیف *xafi:f bir'oz, bir muncha, kam, picha*
 خفیہ *xufiya kam sirli, yashirin, maxfiy, xufiya;*
 اطلاع *~ ms maxfiy xabar; ~ بطور پ ~ bekitiqcha,*
 yashirincha, xufiyona, maxfiy ravishda; *پولیس ~*
ms xufiya polisiya
 خلا *xala: m 1 bo'sh joy, bo'shliq; 2 fazo,*
 ko'smo's, koinot
 باز *xala:ba:z m kosmonavt, fazogir*
 بازی *xala:ba:zi: ms kosmonavtika*
 نور *xala:navard P-n q غلاباز ~ نور*
 خلاف *xila:f 1. m 1 teskari, zid, qarama-qarshi,*
 xilof; ~ قانون کے *qonunga qarshi; g'ayri*
 qonuniy; ~ معمول *xila:fe-ma:mu:l odatdagiga*
 xilof (ravishda); 2 aksi, teskarisi; 2. ko'm ~ کے
 -ga qarshi
 ورزی *xila:f varzi: ms tur buzish, poymol*
 qilish (*mas qonunni*)

خلاق **xalla:q** *m isl* Olooh, xudo
 خلال **xila:l** *m* tish kavlagich; کرتا ~ kavlamog,
 tozalamog (*tish, barmoq orasida*)
 خلائى **xala:i:** kosmosga (fazoga) oid
 اڈہ **xala:i: aDDa** *m* kosmodrom
 چہار **xala:i: jaha:z** *m* kosmik kema
 خلط **xalt** 1 qo'shilgan. aralashgan; 2 chigall-
 ashgan. poyma-poy
 خلط **xalt-malt** *jft q* خلط
 خالفشا **xalfsha:r, xalafsha:r** *m* 1 tartibsizlik,
 to's-to'polon; 2 ixtilof, nifoq, kelishmovchilik
 خلق **xalq** *m P-n* 1 maxluq; 2 inson, xalq; آواز ~
ms xalq ovozi
 خلق **xulq** *m* xislat, xulq-atvor; odat
 خصل **xulq** *m* yaxshi (odat) xislat
 خلل **xalal** *m* 1 darz, raxna; 2 putur, ziyon;
 3 kamchilik; ڈالنا ~ to'sqinlik q/q, ziyon
 keltirmog
 انداز **xalal anda:z** to'sqinlik qiluvchi, xalaqit
 beruvchi
 خلوت **xalvat** *ms* 1 yolg'izlik, tanholik; 2 xilvat joy
 خلوص **xulu:s, xalu:s** *m* poklik; samimiylik,
 samimiyat; دل سے (پہرہ) chin (yurakdan)
 ko'ngilgan; samimiyat b/n
 خلیات **xulliya:t** *ms P-n ko'p* hujayralar (*mas*
 organizmdagi)
 خلیج **xali:j** *m* ko'rfaz, qo'ltiq
 خلیہ **xulliya** *m* xujayra, kletka
 خم **xam** *m* qiyshiq, egri
 خم **xum** *m* xum
 خمیازہ **xamiya:za:** *m* 1 esnoq, esnash,
 kerishish; 2 evaz, jazo; oqibat; (بھگتنا) a)
 jazo tortmog; b) qiyinchilikni bo'shidan
 kechirmog; 3 bezovtalik, tashvish
 خمیر **xami:r** *m* 1 xamirturush, achitqi; 2 maj

to'lqinlanish, bezovtalik, g'ulg'ula, g'alayon;
 گزرتا ~ (tabiatan) o'zgarib qolmog
 خننا **xunna:q** *m* ich terlama, differiya
 خنجر **xanjar** *m* pichoq, xanjar
 خندق **xandaq** *ms* chuqur, o'yiqliq; xandaq, zovur
 خندہ **xanda** *m* kulgi, xursandchilik,
 xushchaqchaqlik
 پیشانی **xanda pesha:ni:** *ms* 1 marqlik,
 matonat, jasorat, 2 quvnoqlik, xushchaq-
 chaqlik
 خو **xu:** *ms* tabiat, fe'l-atvor; yurish-turish
 خواب **xa:b, xva:b** *m* 1 uyqu, tush; آتا ~
 tushga kirmog; 2 umid, orzu; دیکھنا ~
 (کا) a) orzu q/q; b) tush ko'rmoq
 آرد **xa:b a:var** uxlatadigan (uyqu) dori
 دخیال **xa:bo'-xaya:l** *m* 1 xom xayol, puch
 xayol, ro'yobga chiqmaydigan orzu
 خوابی **xva:bi:** xayoliy, amalga oshmaydigan,
 puch
 خوابیدہ **xa:bi:da, xva:bi:da** *P-n* 1 uxlayotgan,
 uyqudagi, mudrayotgan; 2 noaniq
 خواتین **xava:ti:n** *ms ko'p q* خاتون
 خواں **xva:N** *ox* o'qiyotgan, o'quvchi; ~ غزل
 g'azalxon, g'azal o'quvchi
 خوانچہ **xva:Ncha** *m* patnis
 فروش **xva:Nchafaro'sh** *m* chakana savdo
 qiluvchi
 خواندگی **xva:Ndagi:** *ms* 1 savodxonlik, savod,
 yozishni bilish; 2 o'qish (*mas* parlamentda
 qonun loyahasini)
 خواندہ **xva:nda** savodxon, yozish-o'qishni
 biladigan, o'qimishli
 خواه **xva:h** garchi, garchand
 خواہاں **xa:ha:N, xva:ha:N** 1 umid qiluvchi,
 xohlovchi, 2 intiluvchi, moyil; ہو ~ umid q/q,

xohlamog
 خواهش **xa:hish, xva:hish** *ms* 1 istak, mayl, xohish; 2 ishtiyog, orzu, havas; (كرتا) ~ ركهتا ~
 istamoq, xohlamog, ishtiyogmand b/q
 مند ~ **xa:hishmand** 1 istovchi, xohlovchi; 2 ishtiyogmand, orzumand, havasmand
 خواهشات **xa:hisha:t** *ms ko'p q* خواهش
 خواه **xa:h-maxa:h** 1 behuda, bekorga, bekor; 2 majburan, zo'rlab
 خوب **xu:b** 1 yaxshi, a'lo, zo'r; 2 ajoyib, chiroyli; 3 zap, juda, nihoyatda, bag'oyat
 صورت ~ **xu:bsu:rat** xushro'y, xushsurat, ko'rkam, chiroyli
 خوابی **xu:ba:ni** *ms* o'rik
 خوبصورتی **xu:bsu:rati** *ms* chiroy, go'zallik, xushro'ylik, ko'rkamlik
 خوبی **xu:bi** *ms* yaxshilik, fazilat, yaxshi sifat
 خود **xu:d** 1 o'zi; 2 o'z, shaxsiy
 اعتماد ~ **xu:d etima:d** o'ziga (ishongan) ishonuvchi
 اكتفا ~ **xu:d iktifa:** *q* خود كئفيل
 انحصاری ~ **xu:d inhisa:ri** *ms P-n* o'ziga (o'z kuchiga) tayanish, o'z-o'zini ta'minlash; o'z ehtiyojlarini o'zi qondirish
 بخود ~ **xu:d baxu:d** o'zidan-o'zi; avtomatik ravishda
 رو ~ **xu:dro'** 1 o'z-o'zidan o'sib chiquvchi; گھاس ~ *m* begona o't; 2 *esk* o'zi yuradigan, avtomatik
 ستایی ~ **xud sata:i** *ms* o'z-o'zini maqtash, maqtanish
 سوزی ~ **xud so'zi** *ms* o'z-o'zini yondirish
 غرض ~ **xu:d g'arz** xudbin, o'z manfaatinni ko'zlaydigan
 غرضی ~ **xu:d g'arzi** *ms* xudbinlik, o'z

manfaatini ko'zlash
 فریبی ~ **xu:d farebi:** *ms* o'z-o'zini aldash
 کار ~ **xu:d ka:r** o'z-o'zidan harakat qiladigan
 کوش ~ **xu:d kush** *m* o'z joniga qasd qiluvchi
 کوشی ~ **xu:d kushi:** *ms* o'z joniga qasd qilish, o'z-o'zini o'ldirish
 خود انحصاری ~ **xu:d kifa:lat** *ms H-n q* كفالت
 كفیل ~ **xu:d kafi:l** o'z-o'zini ta'minlagan; اپنی معیشت کو ~ بنانا o'z iqtisodiyot ehtiyojini o'zi qondirmog
 مختار ~ **xu:d muxta:r** erkin, hur, ozod, mustaqil
 مختاری ~ **xu:d muxta:ri** *ms* erkinlik, ozodlik
 نمائی ~ **xu:d numa:i** *ms* o'zini ko'rsatish, maqtanish
 خوراک **xu:ra:k** *ms* 1 ovqat, oziq-ovqat; کی دکان ~ oziq-ovqat do'koni; (كھلات) ~ ovqatlantirmog, yedirmog; 2 o'lchovli miqdor, doza (*mas dori*)
 خوراکي **xu:ra:ki** 1 ovqat (oziq-ovqat)ga doir; (اشیاء) ~ اشیائے ~, *ms P-n ko'p* oziq-ovqat mollari; 2 to'yimli, foydali; 3 ma'lum miqdor (doza)dagi
 خورد **xu:rd** *m* taom, ovqat
 برد ~ **xu:rd-burd** *m jft* 1 talon-taroj; 2 o'zlashtirish, o'ziniki qilib olish (*noqonuniy ravishda*), "yeb ketish"
 د نوش ~ **xu:rdo'-no'sh** *ms P-n jft* oziq-ovqat, yeb-ichish
 خوردن **xu:rdan** *m P-n* ovqat, taom
 خوردنی **xu:rdani:** *P-n* 1. yeyiladigan, yesa bo'ladigan; ~ اشیائے **ashya:e-xu:rdani:** *ms P-n* oziq-ovqat mollari; 2. *ms* ovqat, oziq-ovqat
 روغن ~ **xu:rdani: rog'an** *m* ovqatga ishlatiladigan yog'
 خورده **xu:rda** *P-n* 1. *m* bo'lak, burda, parcha,

qism; بهاؤ ~ m chakana narx; 2. ox yegan;
zarar ko'rgan; ~ mag'lubiyatga
uchragan, mag'lub; ~ کر کم qurtlagan
فروش ~ xu:rda faro'sh chakana savdo
qiluvchi

خورماني xu:rma:ni: q خوباني

خوش xu:sh 1 xursand, mamnun, rozi;
2 xushchaqchaq; کرنا ~ (کو) xursand q/q;
هوا ~ (سے) xursand b/q; 3 yoqimli; yaxshi;
رہنے ~ baxtli (sog') bo'ling
اخلاق ~ xu:sh axla:q yaxshi xulqli, odobli
اخلاق ~ xu:sh axla:qi: ms yaxshi xulq, odob
اسلوب ~ xu:sh uslu:bi: ms odoblik; biror
narsani yaxshi yo'l b/n bajarish; سے ~
yaxshilab, tartib (odob) b/n
آمد ~ xu:sh a:mad ms xushomad, maqtov
آمدی ~ xu:sh a:mdi: xushomadgoy,
tilyog'lama
آمدید ~ xu:sh a:mdi:d ms 1 xush kelibsiz,
marhabo; 2 salomlashish; tabriklash;
(کہنا) ~ (کو) ~ کرنا (کہنا)
3 marhamat ! marhabo ! xush kelibsiz
آئند ~ xu:sh a:iNd yaxshi, ijobiy, qulay
بخت ~ xu:sh baxt q P-n قسمت ~
بو ~ xu:shbu: ms xushbo'y (muattar) hid;
دار ~ xushbo'y, hidli, muattar
یویات ~ xu:shbu:ya:t ms P-n ko'p attorlik
mollari, parfyumeriya
بینی ~ xu:sh bi:ni: ms to'g'ri (baholash)
qarash, ijobiy fikr yuritish
(پوشاک) ~ xu:sh po'sh (po'shak) chiroyli
kiyim kiygan, kelishgan
حال ~ xu:sh ha:l 1 gullab yashnovchi,
baxtiyor; 2 badavlat, o'ziga to'q
حالی ~ xu:sh ha:li: ms 1 farovonlik, to'qlik;

2 gullab-yashnash; 3 baxtiyorlik

خط ~ xu:sh xat m xati chiroyli, kalligraf
خطی ~ xu:sh xati: ms chiroyli yozuv, husnixat
خلقی ~ xu:sh xulqi: ms odob, tavoze; سے ~
odob b/n
داسن ~ xu:sh da:man ms yuq xotinning
onasi, qaynona
ذائقہ ~ xu:sh za:eqa 1 lazzatli, mazali; 2 didli
طبعی ~ xu:sh tabai: ms xushchaqchaqlik,
quvnoqlik
فہمی ~ xu:sh fehmi: ms 1 ko'ngilchanlik,
muloyimlik; 2 beg'amlik
قسمت ~ xu:sh qismat baxtli, baxtiyor, omadli
قسمتی ~ xu:sh qismati: ms baxt, baxtiyorlik,
omad
گہی ~ xu:sh gappi: ms shirin suhbat,
hangoma (faqat ko'plikda ishlatiladi (یا -))
کلائی ~ xu:sh kala:mi: ms xushguftorlik,
tilning shirinligi
گفتار ~ xu:sh gufta:r tili shirin, xushmuomala,
shakarguftor
گوار ~ xu:sh gava:r so'lim, chiroyli; shirin,
yoqimli, ko'ngildagidek
ماحول ~ xu:sh ma:ho'l m yaxshi (qulay)
vaziyat
مزاجی ~ xu:sh miza:ji: ms 1 boadablik,
xushmuomalalik; 2 nazokat
مزاق ~ xu:sh maza:qi: ms did, farosat
نویسی ~ xu:sh navi:si ms q خوش خطی
خوش xo'sha m 1 boshog; 2 to'p, uyum
چینی ~ xo'sha chi:ni: ms naf olish, foyda-
lanish
خوش xushi: ms 1 xursandchilik, sevinch;
2 baxt, baxt-saodat; xohish, istak; سے ~ jonim
b/n, chin dildan; کہے کی بات یہ ہے ~ xursandchilik

tomoni shuki; ماٲا ~ xursandchilik q/q; سے اٲٲی ~ سے
 o'z xohishiga ko'ra, o'z xohishi b/n; ~ جو آپ کی
 o'zingiz bilasiz, xohishingiz
 خوف xaof *m* 1 qo'rqinch, vahima, hadik;
 2 dahshat; کرنا (کھاتا) ~ (سے) qo'rqmoq;
 میں ڈالنا ~ qo'rqitmoq, vahima q/q
 ناک ~ xaofna:k qo'rqinchli, vahimali
 xaofno'-xatar *m jft* xavf-xatar,
 qo'rqish
 خوف xaof'-hara:s *m jft q* دہراس
 خو'l *m* 1 bo'shliq, kovak, teshik; 2 po'stloq,
 po'st, ustki qavat; 3 g'ilof
 خون xu:n *m* 1 qon; 2 nasl-nasab, qarindoshlik;
 3 maj qatl etish
 آشام ~ xu:n a:sha:m qonxo'r, zolim
 آشامی ~ xu:n a:sha:mi: *ms* qonxo'rlik, qon
 to'kish, zulm qilish
 آلودہ ~ xu:n a:lu:da qonli, qonga belangan
 بہا ~ xu:n baha: *m isl* qatl evaziga
 beriladigan mablag'
 بہانا # ~ qon to'kmoq, o'ldirmoq
 پانی ایک کرنا ~ juda qattiq (og'ir) mehnat q/q
 پینہ ایک کرنا ~ bor kuchini bermoq (ishga
 solmoq)
 پینا ~ a) qatl etmoq; b) qiynamoq
 ٹنڈا کرنا ~ tinchlanmoq, o'ziga kelmoq
 جگر پینا ~ (xu:ne-jigar) o'zini (tiymoq) og'irlikka
 solmoq
 چکان ~ xu:n chaka:N 1 qonli, shafqatsiz,
 dahshatli (*mas voqea*); 2 qon tomib
 turadigan (*mas qilich*)
 خرابہ ~ xu:n-xara:ba *m* xunrezlik, qirg'in,
 qon to'kish
 خشک ہونا ~ qo'rqib ketmoq, vahimaga tushmoq
 رنگ لاتا ~ berilgan qurbonliklarning zoye ket-

masligi
 خون خرابہ ~ xu:nrezi: *ms q* ریزی
 سفید ہونا ~ berahm (bag'ritosh) b/q
 سوار ہونا ~ qattiq jahli chiqmoq, qoni qaynab
 ketmoq
 کا دباؤ ~ qon bosimi
 دورہ (دوران) ~ (daora:ne-xu:n) qon
 aylanishi
 کرنا ~ o'ldirmoq, qatl etmoq
 خونى xu:ni: 1. qon, qonli; 2. *m* qotil
 خویش xesh 1 o'ziniki; 2 yaqin, qarindosh
 پروزی ~ xesh parvari: *ms* qarindoshchilik
 واقربا ~ xesho'-aqriba: 1 do'stlar, oshna-
 og'aynilar, 2 qavmu qarindosh
 خیابان xiya:ba:N 1 *m P-n* shohko'cha,
 xiyobon; bulvar; 2 gulzor, gulxona
 خیال xaya:l *m* 1 o'y, fikr, xayol; 2 tasavvur;
 3 gumon, taxmin; سے باہر ~ tasavvur qilib
 (tushunib) bo'lmaydigan; سے mening
 fikrimcha; آت (کا) ~ esga (yodga) tushmoq;
 پاندھنا ~ taxmin q/q
 آفروز (انگیز) ~ xaya:l afro'z (aNghez) ma'nodor,
 teran, chuqur ma'noli
 خام ~ xaya:le-xa:m *P-n* xom xayol
 فاسد ~ xaya:le-fa:sid *m* noto'g'ri (gap) xayol
 خیالات xaya:la:t *m ko'p* (*bir خیال*) 1 fikrlar;
 2 g'oyalar
 خیالی xaya:li: xayoliy, noreal; # پلاؤ پکاتا ~ xom xayol
 (ko'knori xayol) b/q; گھوڑے دوڑاتا ~ har xil taxmin
 (gumonlar) q/q
 خیانت xaya:nat *ms* xiyonat, bevafoqlik, sotqinlik
 خیر xeyr *ms* 1 salomatlik, eson-omonlik; ماٲا ~
 yaxshilikni xohlamoq; 2 xo'p, mayli, ma'qul
 اندیش ~ xeyrandesh xayrixoh, boshqalarga
 yaxshilikni ravo ko'ruvchi (*mas xat oxirida*)

بار ~ **xeyrba:d** xayr, oq yo'l, sog' bo'ling; کہا ~ xayrlashmoq

بھال ~ **xeyrsaga:li:** ms yaxshi ezgu niyat, yaxshi istak; کا دورہ ~ yaxshi niyat b/n qilingan (tashrif) safar

خبر ~ **xeyr-xabar** ms jft 1 eson-omonlik; sog'-salomatlik; 2 xushxabar

خواہ ~ **xeyrxa:h** q خیر اندیش

مقدم ~ **xeyr maqdam** m tabrik, salomlashish, qutlash; کرتا ~ (کا) qarshi olmoq, qutlamoq, olqishlamoq

مقدری ~ **xeyr maqdami:** qutlovga tegishli; تقریر ~ ms tabrik nutqi

عائیت ~ **xeyro'-a:fiyat** ms sog'-salomatlik, omon-esonlik, sog'liq; دریافت کرتا ~ (کی) hol-ahvoldan xabar olmoq, so'ramoq

خیرات **xeyra:t** ms ko'p sadaqa, xayr-sadaqa; (بھالسا) ~ sadaqa ulashmoq

خیراتی **xeyra:ti:** m xayr-ehson qiluvchi (yordam ko'rsatuvchi) odam

خیرہ **xi:ra** esk 1 qorong'i; xiralashgan; 2 maj behayo

چشم ~ **xi:ra chashm** ms a) yaxshi ko'rmaydigan, xira ko'z; b) hayron bo'lish

خیریت **xeyri:yat** ms salomatlik, eson-omonlik, tinchlik, xotirjamlik; پوچھا ~ hol-ahvol so'ramoq

خیز **xez** 1. ox paydo qiluvchi, turg'azuvchi; 2. m turish, sakrash, irg'ishlash; ~ سحر tongda turuvchi, saharxez

خیلے **xeyle** esk juda, nihoyatda

خیمہ **xema** m kapa, chodir; ڈالنا (کھڑا کرتا) ~ chodir (tikmoq) o'rnatmoq

گاہ ~ **ms** lager, lashkargoh, vaqtinchalik qarorgoh

،

دا **da:l** ms 1 urdu alifbosidagi o'n birinchi harf; abjad hisobida to'rt raqamini bildiradi; 2 ilmi nujumda Merkuriy sayoraning belgisi

داب **da:b** I ms 1 bosim, og'irlik; 2 kuch; ta'sir; (بھالسا) ~ a) ta'ziy q o'tkazmoq; b) qo'rqitmoq, do'q-po'pisa q/q; 3 yo'pish, bekkitish; (رکھنا) ~ a) tur ko'mmoq, yashirmoq; b) egallab o'ziniki qilib o'lmoq

.....II m 1 odob; rasm-rusum; an'ana; 2 dabdaba, bashanq, hashamat

دبانا **da:bna:** q دبانا

داتا **da:ta:** 1 beruvchi, saxiy; 2 maj parvardigor; 3 darvish, faqir

داتن **da:tan** ms misvoq, tish tozalaydigan cho'p; کرتا ~ tishni misvok b/n tozalamoq

داخل **da:xil** ichiga kiruvchi, kirgan; keluvchi; هوتا ~ ichkariga (ichiga) kirmoq; کرتا ~ tur kiritmoq, joylashtirmoq

داخلہ **da:xila** m kirish; ٹکٹ ~ m kirish pattasi

داخلی **da:xli:** ichki; امور ~ m ichki ishlar

داد **da:d** ms maqtov; olqish; دینا ~ olqishlamoq, hurmatini o'miga qo'yomoq; سنیٹا ~ tahsinga sazovor b/q

تھسین **da:de-tehsi:n** tahsinga sazovor

دادا **da:da:** m 1 buva (ota tomondan); 2 bosqinchi

گیرى **da:da:gi:ri:** ms bosqinchilik, alon-taroj

دادی **da:di:** ms buvi (ota tomondan)

امان **da:di: amma:N** ms q دادی

دار **da:r** I old joy; makon

دانی **da:re-fa:ni:** ms foni (bu) dunyo; (رضخت هوتا) ~ اس سے کوچ کر جانا (رضخت هوتا) II ox biror narsaga ega (molik);

~ aqlli; زمین ~ yer egasi, zamindor
III old 1 makon, joy; 2 idora
 الطباعت ~ da:rut-taba:at m esk bosmaxona
 العلوم ~ da:rul-ulu:m m isl diniy oliygoh,
 universitet
 (السلطنت) ~ da:rul-huku:mat ~ الحکومت (الخلافة ~ السلطنة)
 (da:rul-xila:fa, da:rus-saltanat) m poytaxt
 ودار ~ da:ro'-mada:r m 1 qaramlik; tobelik;
 2 poydevor, asos
 داڑھ da:Rh I ms oziq (jag') tish
 II ms fig'on
 داڑھی da:Rhi: ms soqol; تبا ~ soqol olmoq;
 تبا ~ soqol oldirmoq
 دای da:si: ms H-n cho'ri, kaniz
 داستان da:sta:n ms tur doston
 کو ~ da:sta:ngo' m dostonchi
 داشته da:shta: ms o'ynash xotin; ma'shuqa
 دای da:i: 1 duo qiluvchi; 2 isl yaxshi ishlarga
 chorlovchi; 3 chaqiruvchi; # اجل کو لیک کہتا ~ yuq
 vafot etmoq
 داغ da:g' m 1 belgi; nishon; 2 tamg'a; 3 dog';
 asar; 4 chandiq; 5 yara
 مفارقت ~ da:g'e-mufa:riqat m hijron dog'i
 داغ بیل da:g' bel ms 1 sirtqi ko'rinish, shakl,
 ko'ntur; 2 sxema; chizma; 3 tuzilish;
 ڈالنا (کی) ~ asos solmoq
 داغنا da:g'na o' 1 kuydirmoq, tamg'a bosmoq;
 2 uchirmoq (mas raketani); 3 otmoq (mas
 zambarakdan)
 داغ da:fa m bartaraf (daf) qiluvchi; ~ دور
 da:fe-dard P-n dard (og'riq)ni qoldiruvchi
 [dori]
 دال da:l ms 1 mayda no'xot; 2 suyuq ovqat turi
 روٹی ~ da:l ro'Ti: ms jft non-choy; oziq -
 ovqat; 2 maj tirikchilik

دام da:m m 1 narx; qiymat; 2 tuzoq, to'r
 دامن da:man m 1 etak; 2 tog' bag'ri; 3 maj
 imkoniyat (mas tildagi); بچانا (سے) o'zini olib
 qochmoq; نہ چھوڑنا ~ vafodor (کا) ~
 (ixlosmand) bo'lib qolmoq; biror narsaga
 (kimsaga) sodiq b/q
 گیر ~ da:mangi:r 1 yordamga muhtoj bo'lgan;
 2 g'amgin, xomush
 دانا da:na: I q دانہ
 II m dono; aqlli
 دانائی da:na:i: ms donolik, oqillik
 دانتوں میں زبان کی طرح رہنا # دانت da:Nt m tish;
 har vaqt xavf ostida yashamoq
 دانتا da:Nta: m tish; tishcha (mas arraning)
 دانش da:nish ms 1 fan; ilm; 2 aql
 گا ~ ms bilim yurti, ilmgoh
 داند ~ da:nishmand m donishmand; oqil;
 dono; ziyoli
 داندی ~ da:nishmandi: ms donishmandlik;
 donolik
 داندھند ~ da:nishvar q
 دانہ da:na m 1 don; urug' 2 ovqat; 3 maj
 nasiba; qismat
 دانے ~ pa:ni: m jft oziq-ovqat; rizq;
 qismat; # اٹھنا ~ safarga tayorlanmoq;
 rizq-ro'zi tamom b/q, ketishga otlanmoq
 دنکا ~ da:na-duNka m jft 1 don-dun;
 2 bir oz, picha
 داندھار da:neda:r donador, dona-dona, yirik
 دال da:o m 1 xavf-xatar; 2 garovga tikilgan
 (qo'yilgan) narsa; تا پر لگانا ~ a) tavakkal (xavfli)
 ish q/q; b) qimorga tikmoq; c) xavf ostida
 qoldirmoq; 3 egiklik, bukiklik; 4 sport kurash
 usuli
 داہنا da:hina: o'ng tomon; o'ng qo'l (h/da دایاں)

دائر **da:ir** harakatda bo'ladigan; کرنا ~ boshla-
moq, yuritmoq, ishga solmoq

دائرة **da:ira** *m* doira; aylana

دائرہ **da:irae-asar** *m* ta'sir doirasi

دائرہ اختیار **da:irae-amal (ka:r)** *m* huquq (vakolat) doirasi

دائرہ اعمال **da:irae-amal (ka:r)** *m* amal (faoliyat)
doirasi

دائم **da:im** doim, har vaqt; muntazam, ravishda
دائم المرض **da:imul-marz** *m* surunkali kasallik

دائمی **da:imi:** doimiy; surunkali; muttasil

دائمی **da:i:** *ms* doya; enaga

دایاں **da:ya:N** o'ng tomon (*h/da* دایاں)

دبا **daba:** jim, sekin; bosiq; دبی آواز *past* ovoz;

دبانا **daba:na:** *o'* 1 bosmoq; 2 uqalamoq;

3 bekitmoq; 4 tazyiq o'tkazmoq; 5 o'g'irlamoq

دباؤ **da:ba:o** *m* 1 *tur* bosim; خون کا ~ qon bosimi;

2 tazyiq; stress; وقت کا ~ vaqtning (yetmasligi)

ziqligi

دبلا **dubla:** ozg'in; oriq; nimjon

دبلاپا **dubla:pa:** *m* ozg'inlik, oriqlik

دبنا **dabna:** *o'* bosilmoq; yanchilmoq; ezilmoq;

zulum ko'rmoq

دبوچنا **dabo:chna:** *o'* 1 qismoq; siqmoq;

2 ishlamoq; tutib olmoq; 3 yashirmoq

ددهیاں **dadhiya:l** *m* buvaning (*ota tomonidan*)
hovlisi

ددهیل **dudhey:l** *ms* sog'im sigir

دار **dar** *m* 1 eshik, darvoza; 2 uy, turar joy;

آتا ~ a) kirmoq, ichiga o'tmoq; b) singmoq,

tarqalmoq

داراز **dara:R** *ms* yorilish, ajralish; 2 darz ketish

دراز **dara:z** *m* tortirma (*stol, vkhda*)

دارآمد **dara:mad** *ms* 1 import; 2 kelish, kirish,

kirim

1 درآمد **dara:mda:t** *ms* ko'p q

درانتی **dara:Nti:** *ms* o'roq

دراندازی **daranda:zi:** *ms* aralashish

دربدر **darbadar** darbador, ovorai jahon;

دربدر **darbadar** darbador, ovorai jahon;

درج **darj** *m* ro'yxatga olish (kiritish, yo'zish),
qayd qilish

درجن **darjan** *ms* dyujina; o'n ikki dona

درجه **darja** *m* 1 daraja, martaba; 2 sort; nav;

دريجہ **darjae-avval** eng yuqori, a'lo, birinchi

دريجہ **darjae-avval** eng yuqori, a'lo, birinchi

دريجہ **darjae-avval** eng yuqori, a'lo, birinchi

دريجہ **darjae-avval** eng yuqori, a'lo, birinchi

درحقیقت **darhaqi:qat** haqiqatni aytganda;
darhaqiqat

درخت **daraxt** *m* daraxt

درخشان **daraxsha:N** yorqin; porloq; nur
sochuvchi

درخشندگی **daraxshandagi:** *ms* yog'du; shu'la,
chaqnash

درخواست **darxa:st, darxva:st** *ms* 1 iltimos;

درخواست **darxa:st, darxva:st** *ms* 1 iltimos;

درخواست **darxa:st, darxva:st** *ms* 1 iltimos;

درخواست **darxa:st, darxva:st** *ms* 1 iltimos;

درد **dard** *m* 1 dard; og'riq; سر **darde-sar** bosh
og'rig'i; 2 *maj* qiyin ahvol; ko'ngilsizlik

درد **darde-shaqi:qa** *m* migren, qattiq
bosh og'rig'i

درد **darde-shaqi:qa** *m* migren, qattiq

دردی **darzi:** *m* tikuvchi, chevar

درس **dars** *m* tur dars; saboq

درس **dars** *m* tur dars; saboq

درس **dars** *m* tur dars; saboq

دوست **durust** 1 to'g'ri; ma'qul, tuzuk;
 2 to'g'rilangan; yaxshilangan
 درستی **durustagi**: q درستی
 دوستی **durusti**: ms 1 to'g'rilash; to'g'rilik; aniqlik;
 2 sog'lik
 داری **darsi**: o'quv, o'qishga oid; کتاب ~ ms darslik
 درست **durusht** qo'pol; qattiq qo'l, shafqatsiz;
 qahri qattiq
 درستی **durushtu**:i: qattqlik, qo'polliok
 درست **durgat** ms H-n qiyinchilik; qiyin (og'ir)
 ahvol
 درگور **dargo'r** dafn etilgan, go'rga kirgan
 درمیان **darmya:n** m 1. o'rta, o'rtada joylashgan;
 2. ko'm ~ کے o'rtasida, o'rasida
 درمیان **darmya:ni**: o'rtadagi; oraliq; o'rtacha
 مدت کے انتہايات ~ oraliq (muddatdan oldingi)
 saylov
 درندگی **darindagi**: ms yirtqichlik; vahshiylik;
 yovvoyilik
 درندہ **darinda** 1 tur yirtqich; 2 hayvon
 دروازہ **darva:za** m 1 eshik; 2 darvoza
 دروست **daro'-bast** ms tuzilish, tashkil topish,
 struktura
 دورو **duru:d** m salom; maqto'v, ta'rif, durud
 (kopincha Muhammad payg'ambar nomiga
 aytiladi)
 درہ **darra** m tog' yo'li; dara
 درہ **durra** m qamchi
 درہم برہم **darham - barham** m jft ostin-ustun;
 ag'dar-to'ntar; ayqash-uyqash
 داری **dari**: ms sho'lcha, gilamcha
 دریا **darya**: m daryo; # دل ~ bag'ri keng, sahiy,
 muruvvatli; olijanob
 دریافت **darya:ft** ms 1 so'rash; xabar olish;
 xabardor bo'lish; کرنا ~ (سے) so'ramoq; bilmoq;

2 ixtiro, kashfiyot, yangilik
 دریائی **darya:i**: daryoga taalluqi
 گھوڑا ~ m suv oti, begemot
 درپچ **dari:cha** m 1 darcha; deraza; 2 xufiya
 eshik
 درغ **dareg'** m 1 rad (inkor) etish; 2 bosh
 tortish; کرنا ~ (سے) toymoq, tap tortmoq
 دریں اثنا **dari:N asna**: shu (orada)asnoda
 دس **das o'n**: گنا ~ **das guna**: o'n barobar
 دستور **dasa:ti:r** m ko'p kam q دستور
 دست **dast l** m qo'l; راست ~ tur o'ng (qo'l) to'mon
 II m ichi ketishi; آتا (گنا) ~ ichi
 ketmog
 آور **dasta:var** surg; دوا ~ ms surg; dori
 بدست **dast-badast** qo'lma-qo'l; (جنگ) ~
 qo'l jangi
 درازی **dast dara:zi**: ms kuch ishlatish;
 zo'ravonlik; zo'rlash; urish
 دستار **dasta:r** ms 1 salla; 2 sochiq
 بندی ~ **dasta:rbandi**: ms 1 dastar bandiy
 (ustoz shogirdini o'z o'miga tayinlash
 marosimi); 2 san'at ahlining xizmatini
 taqdirlash (salla o'raladi)
 دستانہ **dasta:na** m qo'lqop
 دستاویز **dasta:vez** ms hujjat; guvoynoma;
 sertifikat
 دستاویزی **dasta:vezi**: hujjatli (mas film)
 دستخط **dastxat** m imzo; کرنا ~ (پ) qo'l qo'yimoq
 دستخطی **dastxati**: imzo chekilgan, imzolangan
 دسترخوان **dastarxva:n, dastarxa:n** m 1 dasturxon;
 ko'pincha yerga solinadigan; 2 maj ziyofat
 دسترس **dastras** ms 1 kirish; qo'li yetish;
 حاصل کرنا ~ foydalanishga ijozat olmoq
 دستک **dastak** ms taqillatish; دینا ~ taqillatmoq,
 eshik qoqmoq

دستکار **dastka:r** *m* hunarmand, kosib
 دستکاری **dastka:ri:** *ms* hunarmandchilik; hunar;
 kasb
 دستکشی **dastkashi:** *ms* tur qo'lni tortib olish,
 o'zini olib qochish
 دستگیر **dastgi:r** *m* yordamchi, asistent, muovin
 دستگیری **dastgi:ri:** *ms* 1 yordam; 2 himoya
 دستمال **dastma:l** *m* ro'moicha
 دستور **dastu:r** *m* 1 taomil; urf-odat
 دست - عمل **dastu:re-amal** *m* 1 qoida; ustav;
 2 qo'llanma, yo'l-yo'riq
 ساز **dastu:rsa:z** qonun tuzuvchi
 (chiqaruvchi)
 سازی **ms** qonun (tuzish) chiqarish
 دست **dasta** *m* 1 dasta; sop; 2 harbiy bo'lim;
 3 guldasta; 4 uyum; 5 kaltak
 بندی **dasta bandi:** *ms* quruhbozlik
 دستی **dasti:** 1. qo'lga oid; یم ~ qo'l granatasi;
 سامان **m** qo'l yuki; 2. *ms* 1 band; tutqich;
 2 dastro'mol
 دستیاب **dastyab** bor, mavjud bo'lgan, naqd
 دسوان **dasva:N** o'ninchi
 دشمن **dushman** 1. *m* dushman, g'anim; 2. ox
 aksil, qarshi; انقلاب ~ عناصر *m* aksilinqilob
 kuchlar
 دشمنی **dushmani:** *ms* dushmanlik; g'animlik
 دشنام **dushna:m, dishna:m** *ms* haqorat; tahqir
 دشوار **dushva:r** qiyin; og'ir, mushkul
 دشواری **dushva:ri:** *ms* qiyinchilik; og'irlik,
 mushkullik
 دعا **dua:** *ms* duo; yaxshi tilak; (کے لئے) ~ کرنا (مانگنا);
 duo q/q
 گو **dua:go'** *m* duo qiluvchi, duogo'y; yaxshi
 tilak bildiruvchi
 دعاوی **daa:vi:** *m* kam ko'p da'volar

دعوا **da:va:** *m* da'vo
 دعوات **da:va:t** *ms* ko'p kam duolar
 دعوت **da:vat** *ms* 1 ziyofat; 2 taklif; دینا ~ a) ziyofat
 bermoq; b) taklif q/q; نامہ ~ *m* taklifnoma
 دعویٰ **da:va:** *q* دعوا
 دعویدار **da:veda:r** *m* da'vogar
 دف **daf** *m* doira, childirma
 دفاتر **dafa:tir** *m* ko'p (بیردفتر) idoralar
 دفاع **difa:** *m* mudofaa; himoya
 دفاعی **difa:i:** mudofaaga tegishli
 دفتر **daftar** *m* idora; tashkilot
 دفتر - خارجہ **daftare-xa:rija** *m* tashqi ishlar vazirligi
 دفتری **daftari:** idora (tashkiot)ga tegishli;
 زبان **ms** ish yuritish (yozuv-chizuv) tili
 دفعہ **dafa** *m* 1 marta, marotaba, gal, safar;
 اس ~ bu safar; کئی ~ bir necha marta; 2 modda
 (mas qonunda)
 دفن **dafn** *m* dafn etish, ko'mish
 دفنات **dafna:na:** o' ko'mmoq; dafn etmoq
 دفتینہ **dafi:na:** *m* [bekitilgan] hazina
 دیق **diq** I 1. xafa (diqqat) bo'lgan; achchig'i
 chiqqan; 2. *ms* siqilish, tanglik
 II *ms* uzoq davom etadigan isitma
 (ہچ ~ h/da)
 دیققت **diqqat** *ms* qiyinchilik, tanglik, bezovtalik
 دقایقوسی **daqiya:nu:si:** 1 eski; almisoqdan qolgan;
 2 qoloq, konservativ
 دکان **duka:n** *ms* do'kon, magazin
 دکاندار **duka:nda:r** *m* sotuvchi, do'kondor
 دکھ **dukh** *m* dard, ranjish, g'am, alam;
 ہے کہ **dukh** afsuski...
 دکھانا **dikha:na:** o' ko'rsatmoq, namoish etmoq
 دکھانا **dukha:na:** o' ozor bermoq, qiynamoq
 دکھائی **dikha:i:** *ms* ko'rinish; namoyish, zohir
 bolish; دینا ~ korinmoq

دکھنا **dukhna:** o'z 1 azoblanmoq; 2 zirqirab og'rimoq

دل **dal** *m H-n* 1 qo'shin; 2 firqa, partiya

دل **dil** *m* 1 yurak; kongil; dil; 2 ruh; 3 jur'at;
پرتقەر رکھنا ~ chidamoq; بهلا ~ vaqt chog'lik q/q;
ovunmoq; خون هوجا ~ qiynalmoq, azob
chekmoq; سير هوتا ~ qoniqmoq, to'ymoq
برداشته ~ **dil barda:shta** ma'yus; g'amgin;
mahzun

بړهانا ~ **dil baRha:na** o' ko'nglini ko'tarmog

چسپ ~ **dilchasp** qiziqarli, qiziq, ajib, g'alati

چسپي ~ **dilchasp:** *ms* qiziqish; diqqat, e'tibor

داده ~ **dilda:da** *m* shaydo, muxlis

دار ~ **dilda:r** 1 dildor; maftunkor; jozibati;

2 oshiq; ma'shuq; mahbuba

داري ~ **dilda:ri:** *ms* ro'yixushlik, iltifot; mehr;
samimiylik

دوز ~ **dildo'z** qayg'uli, g'amgin; واقعه ~ *m*
qayg'uli voqea

دشمن ~ **dilshikan** 1 ozor beruvchi, dilozor;

2 *maj* yakson qiladigan

دشمنی ~ **dilshikni:** *ms* ozor keltirish; aziyat
yetkazish

دشمن ~ **dilfareb** jozibador; ko'rkam; yoqimli

دشمن ~ **dilkash** maftun qituvchi; jozibador

دشمن ~ **dil kho'lkar** sahiylik b/n, bajonudil;
ayamasdan

دشمن ~ **dilgirifta** g'amgin; ma'yus; dilabgor,
dilpora

دشمن (کی) ~ **dilgi:ri:** *ms* ko'nglini ranjitish; کړتا
xafa (dilabgor) q/q

دشمن ~ **dillagi:** *ms* hazil-mutoyiba

دشمن ~ **dilnava:z** dilnavoz, yoqimli

دلار **dula:r** *m* mehr, muhabbat

دلاری **dula:ri:** *ms* mahbuba, ma'shuqa

دلالت **dalit** *m H-n* dalit (*hundulardagi eng past
tabaqa*)

دلدار **daldal** *ms tur* botqoqlik

دلہن **dulhan** *ms* kelin

دلی **dili:** yurakdan; samimiy; شکر یاردا کرنا ~ chin
yurakdan minnatdorchilik bildirmoq
تقریب ~ **dili: ta:ziyat** *ms* samimiy ta'ziya
[bildirish]

دلیری **dileri:** *ms* jura't, jasurlik, mardonavorlik

دلایل **dali:l** *ms* dalil, isbot; asos

دلایل ~ **dali:le-mehkam** *ms* asoslangan
(jiddiy) dalil

دم **dam** *m* 1 dam; 2 nafas; 3 jon, ruh;
4 daqiqa; ~ بېرنا ~ a) yordam
bermoq, ko'nglini ko'tarmog, b) tomonini
olmoq, c) izzat-hurmat q/q; مارا ~ tamaki
(vbk) chekmoq

دما ~ **dambaxu:d** nafasi ichiga tushgan

دم **dum** *m* dum

دما ~ **dumburi:da** dumi yo'q, dumi kesilgan

دار ~ **dumda:r** dumli; ستاره ~ *m* kometa

دماغ **dima:g'** *m* 1 miya; 2 donolik, aql;

دماغ ~ لڑانا ~ bosh qotirmoq, miya ishlatmoq

دار ~ **dimog'dor;** takabbur, burni ko'tarilgan;
2 aqlli, dono

دماغی **dima:g'i:** 1 aqliy faoliyatga oid; aqliy;
2 ruhiy, asabiy (*mas* kasallik)

دما ~ **dama:ma** *m* 1 nog'ora; 2 *maj* jonlilik;
chaqqonlik

دمه **dama** *m tib* astma; bo'g'ma kasallik

دن **din** *m* kun; کابات ~ کچه ~ yaqinda;

رات ~ **din dha:Re** kuppakunduz kuni

دندان **danda:n** *m* tish

دندان ~ ساز ~ *m* tish qo'yuvchi doktor

دندا **danda:n shikan** *maj* yakson qiladigan;
 -جواب ~ qaqshatkich zarba
 دندا **danda:na:na:** o'z 1 xursand b/q;
 vaqtchog'lik, kayfu safo q/q; 2 sakramoq
 دنگ **danNg** ozini yo'qotib qo'ygan; ~ردجا تا
 dang qotib qolmoq
 دنگ **daNgal** *m* 1 tartibsizlik; 2 kurash maydoni;
 3 kurash
 دنیا **dunya:** *ms* dunyo; olam
 دنیاوی **dunya:vi:** dunyoviy, bu dunyoga oid
 دو **do'** 1 ikki; ~ایک ~ bir nechta, biroz; 2 juft
 دوا **dava:** *ms* davo, dori-darmon
 دوا **dava:pazi:r** ~ پذیر davolanayotgan,
 tuzalayotgan
 دوا **dava:sa:z** *m* dori tayyorlovchi,
 farmasevt
 دوا **dava:faro'sh** *m* dori tayyorlash, farmasevtika
 دوا **dava:ba** *m* ikki daryo orasida joylashgan yer
 دوات **dava:t** *ms* siyohdon
 دوالا **diva:la:** *q* دیوالیہ
 دوالیا **diva:liya:** *q* دیوالیہ
 دوام **dava:m** 1. doim; abadiy; 2. *m* abadiylik
 دوباره **do'ba:ra** yangidan; qaytadan, boshqat-
 dan, tag'in
 دوپلا **do'ba:la:** ko'paygan, oshgan, ikki baravar
 ko'p; ~هونگی ~ biz benihoya xursand
 bo'ldik
 دوپدا **du'badu'** yuzma-yuz, qarama-qarshi
 دوپول **do'bo'l** *m* 1 qisqa gap; 2 nikoh;
 ~پڑھوانا uylantirmoq
 دوپھاشیا **do'bhashiya** *m* H-n tarjimon
 دوپھر **do'bhar** mushkul, qiyin, og'ir
 دوپٹہ **du:paTTa** *m* 1 yopinchiq; 2 sharf

دوپھر **do'peher** *m* peshin, tush vaqti; choshgoh
 دوپھری **do'pehri:** tush paytidagi, choshgohdagi
 دوتاره **dota:ra** *m* dutor
 دوٹوک **do'to'k** aniq, qat'iy; ~جواب ~ qat'iy (aniq)
 javob; سوال ~ ko'ndalang qo'yilgan masala
 دوچا **du:ja:** ikkinchi; boshqa
 دوچہاں **do'jaha:N** *m* ikki dunyo
 دوچار **do'cha:r** *m* duchor, uchrashuv;
 ~ہونا a) duchor b/q; b) uchrashmoq
 دوچشمی **do'chashmi:** *ms* ھ - **hae-hava:z** harfining
 nomi (*mas* بھ **sozida** بھاپ)
 دوچند **do'chaNd** ikki (baravar) marta ko'p
 دو **du:d** *m* tutun, bug'
 دو **du:d** *kash* *m* mo'ri
 دو **du:dh** *m* sut; ~ کاجلا چھماچھنگی پھونک پھونک کرپیتا ہے
 og'zi kuygan qatiqni ham pufflab ichar; ~دوھ
 کا ~ a) orani ochiq q/q; b) insof q/q;
 ~ کی یو منہ سے آتا # a) nodon (go'l) b/q; b) xali
 ham yosh bola b/q; # کی کسی کی طرح نکالنا #
 arzimagan narsani tashlab yubormoq
 دو **du:dh pi:ta:** *m* chaqaloq
 دو **do'dha:ra:** ikki tomoni o'tkir, ikki tig'li;
 dudam (*pichoq*)
 دو **du:dhi:la** [sutdek] oppoq
 دو **du:dhi:li:** sog'in, sog'iladigan (*sigir*)
 دور **daor** *m* 1 aylanish, aylanma, harakat;
 2 davr, vaqt, zamon
 دور **daore-iqtida:r** *m* hukmronlik davri
 ~اقتدار
 دور **daore-ha:zir** *m* hozirgi (vaqt) davr
 ~حاضر
 دور **daore-vehshat** *m* ibtidoiy jamoa
 ~وحشت
 دور **du:r** uzoq, yiroq; olis; ~کرنا ~ uzoqlashtirmoq,
 chetlashtirmoq; ~ہونا ~ (سے) uzoqlashmoq
 دور **du:raz-qya:s** tasavvur qilish qiyin
 ~ازقیاس (xayolga ham keltirib bo'lmaydigan) gap
 دور **du:r ufta:da** uzoq, olisdagi
 ~افتادہ

اندیش **du:r andesh** uzoqni ko'zlab ish tutadigan; ehtiyo'tkor; mulohazali
 اندیشی **du:r andeshi:** ms uzoqni ko'rish
 بین **du:r bi:n** ms 1 durbin; 2 teleskop
 بینی **du:r bi:ni:** ms a) uzoq (olis)dagi narsalarni ko'rish; b) uzoqni ko'zlash
 دراز **du:r-dara:z** q دور افتاده
 مار **du:r ma:r** uzoqqa otadigan;
 (مراکت) **du:r ma:r** m strategik raketa
 رس **du:r ras** tur uzoqqa boradigan, davomli
 دوران **dao'ra:n** 1. m 1 yurish, aylanish;
 خون **do'ra:n** qon aylanishi; 2 vaqt, davr, zamon;
 2. ko'm ~ کے davomida, ichida
 دورانیہ **daora:nia** m vaqtning bir qismi; davr
 دورا **do'ra:ha:** m yo'lning ikkiga atrilish joyi
 دورگی **do'raNgi:** ms 1 munofiqlik, ikkiyuzlamachilik;
 2 ikki xil rangli
 دوریہ **do'ro'ya** ikki (tomonlama) taraflama
 (mas yo'l)
 دورہ **daora** m 1 safar, sayohat, tashrif, aylanib
 yurish; (کا) ~ کرتا safar q/q; ~ پر ہوتا safarda
 b/q; 2 kasallik xuruj; ~ پڑتا infarkt b/q;
 ~ مرگیا tutqanoq
 دوری **du:ri:** ms uzoqlik, yiroqlik, olislik
 دور **daoR** m 1 chopish; 2 poyga
 دورپ **daoR-dhu:p** ms jft urinish harakat
 دورانا **daoRana:** o' yugurtirmoq, haydamoq;
 choptirmoq
 دورنا **daoRna:** o'z yugurmoq, chopmoq;
 دورنا chopib ketmoq
 دور **do'z** ox tagida, ichida; ~ زمین yer osti;
 ~ آب suv osti
 دوزخ **do'zax** m do'zax
 دوست **do'st** m do'st, o'rtoq, oshna, og'ayni
 دوستانہ **do'sta:na** do'stona; do'stlarcha;

تعلقات **m** do'stona munosabatlar
 دوستی **do'sti:** ms birodarlik, do'stlik;
 کا ہاتھ بڑھانا **do'stlikni** taklif q/q
 دوسرا **du:sra:** ikkinchi; keyingi; o'zga, boshqa;
 طریقے سے **boshqacha** yo'l b/n
 دوسرے **du:sre** ikkinchidan
 دوش **do'sh** I m H-n 1 ayblash, qoralash;
 2 ayb, xato
 II m yelka, kift
 بدوش **yelkama-yelka**, yonma-yon, birgalashib
 دوشیزگی **doshi:zgi:** ms bokiralik, qizlik
 دوشیزہ **doshi:za** ms qiz bola; bokira
 دو طرفہ **do' tarfa** ikki tomonlama
 دوغلا **do'g'la:** 1 qo'shaloq; 2 qoni aralashtirilgan,
 chatishtirilgan; 3 ikkilangan, ikki marta;
 4 maj niyokor (odam)
 دوکان **du:ka:n** q دکان
 دوگانا **do'ga:na:** m duet
 دولت **daolat** ms 1 boylik; mol-mulk; dunyo,
 davlat; 2 mamlakat, yurt, davlat
 ~ مشترکہ **daolate-mushtarka** ms Britaniya
 Hamdo'stlik Mamlakatlari
 ~ مند **daolatmand** davlatmand, boy-badavlat
 ~ مندی **daolatmandi:** ms boylik, badavlatlik
 دوم **du:um** ikkinchi
 دولہا **du:lha:** m kuyov
 دولہن **du:lhan** q دلہن
 دونوں **do'no'N** ikkovi, ikkalasi, ikkovlon;
 ~ طرف **ms** ikkala taraf
 دوہا **do'ha:** m do'ha (ikki misrali she'r)
 دوہرا **do'hra:** ikki baravar, qo'shaloq, ikki marta
 ko'p; ~ بدن m semiz gavda; کھڑکی ikki
 romli (qo'sh) deraza
 دوہرائے **do'hra:na:** q دوہرائے
 دوہنا **do'hna:** o' sog'moq

دو **dah kam** o'n
 دھات **dha:t** *ms* metall, ruda
 ساز ~ **dha:t sa:z** *m* metallurg
 سازی ~ *ms* metallurgiya
 دھاتی metallga oid
 دھار **dha:r** *ms* 1 chiziq; 2 tig', dam; چاقوکی ~
 pakkining dami; 3 suv tez oqadigan
 daryoning o'rtasi; 4 jala, sharros yomg'ir
 دھارا **dha:ra:** I *m* 1 tur oqim; 2 yo'nalish; yurish
II *ms* mavj; chashma
 دھاری **dha:ri:** *ms* chiziq, yo'l
 دار ~ chiziqli, yo'l-yo'l (gazmol vhk)
 دھاڑتا **daha:Rna:** o'z 1 o'kirmoq, bo'kirmoq;
 2 qattiq yig'lamoq; shovqin solmoq
 دھاڑی **diha:Ri:** *q* دھاڑی
 دھاگا **dha:ga:** *m* ip, kalava, tola; (ڈالنا) ~
 ignaga ip o'tkazmoq
 دھاں **daha:N** *m* 1 og'iz; 2 tirqish, yoriq; 3 yara
 دھان **dha:n** *m* sholi
 دھا:نا **daha:na:** *m* qirg'oq; lab; دریاکا ~ daryoning
 cheti; 2 otish quollarining naysimon qismi;
 3 kalibr; 4 tur og'iz
 دھان پان **dha:n-pa:n** *ift* 1 ozg'in, nozik; 2 nimjon
 دھاندلی **dha:Ndli:** *ms* muttahaamlik, firibgarlik
 دھانہ **daha:na** *q* دھانہ
 دھادا **dha:va:** *m* hujum, hamla; tajovuz;
 بولنا ~ (پر) bostirib kelmoq, hujum q/q
 دھا:ی **daha:i:** *ms* 1 o'n, o'nlik; 2 o'n kunlik, dekada
 دھا:ی **duha:i:** *ms* 1 qasam; 2 dod (yo'rdamga
 chaqirish)
 دھبا **dhabba:** *m* 1 dog'; 2 belgi; 3 maj nuqson
 دھکا:نا **dhatka:rna:** o' 1 urishmoq, so'kmoq;
 2 haydab yubormoq
 دھج **dhaj** *ms* 1 tashqi ko'rinish; 2 tarz, usul, yo'l
 دھجی **dhaji:** *ms* mato (gazlama)ning parchasi,

bo'lagi; # یاں اڑتا (کھیڑتا) a) parchalab
 tashlamoq, yo'q q/q; b) kulini ko'kka
 sovurmoq
 دھجی **dhajji:la:** xushbichim, kelishgan
 دھچکا **dhachka:** *m* 1 zarba, urilish; 2 nuqson,
 ziyon; پینچنا ~ ziyon ko'rmoq
 دھرا **dhura:** *m* 1 g'ildirak o'qi; 2 podshipnik
 دھرا **dhara:** // رہتا ~ harakatsiz (bekor) b/q
 دھرا:نا **do'hra:na:** o' qaytarmoq, takrorlamoq
 دھرتی **dharti:** *ms* 1 yer; 2 vatan
 دھرم **dharm** *m* H-n 1 din, mazhab; 2 maj
 vazifa, burch
 دھرم پتی **dharm patni:** *ms* H-n xotin, rafiqa
 دھرمچاری **dharmcha:ri** *m* hindu xudojo'y;
 taqvodor
 دھرمشالا **dharmsha:la:** *m* hindu musofirxona;
 ziyoratchilar uchun joy
 دھرا:نا **dharna:** I *m* H-n 1 qat'iylik, matonat;
 barqarorlik; 2 o'tirgan holda ish tashlash;
 دھرا:نا ~ "dharna" tarzida qarshilik ko'rsatmoq
 II o' 1 ushlamoq, tutmoq; 2 saqlamoq;
 3 qo'ymoq; # دھرا کر (دھرا کر) ~
 qovushtirib (bekor) o'tirmoq
 دھریا **dehriya:** dinsiz, kofir
 دھرا:نا **dhaRa:** *m* 1 guruh, fraksiya; 2 posong;
 og'irlik, vazn
 دھرا:نا **dhaRa:dhara** 1 shovqin-suron (taraqa-
 turuq) b/n; 2 muttasil, to'xtamasdan;
 دھرا:نا ~ گزرتاری *ms* keng ko'lamda hibsga olish,
 qama-qama
 دھرا:نا **dhaRa:ka:** *m* q دھراکا
 دھرا:نا **dhaRka:** *m* xavf-xatar; vahima, qo'rquv
 دھرا:نا **dhaRkan** *ms* yurak (o'ynog'i) urishi;
 to'lqinlanish
 دھرا:نا **dhaRakna:** o' 1 tepmoq, urmoq

(mas yurak); 2 qo'rqmoq. xavfsiramoq
 دهشقا dhaRaNga: q دهشقا
 دهشقا dhaRebandi: ms guruhbozlik, fraksiyaiik
 دهشنا dhasna: o'z cho'kmoq, botmoq, ichiga tushib ketmoq; kirmoq
 دهشقا dehshat ms 1 dahshat, qo'rqinch; 2 terror
 دهشقا aNgez dahshatli ~ انگیز
 دهشقا 1. terrorchilarga oid; 2. m jangari, terrorist
 دهشقا pasandi: ms q دشت گردى ~ پسندى
 دهشقا zada qo'rqan, dahshatga tushgan ~ زده
 دهشقا gardi: ms zo'ravonlik; terrorizm ~ گردى
 دهشقا deshata:k q دشت انگیز ~ تاک
 دهشقا dehqan: m kam dehqon, ziroatchi دهقان
 دهشقا dhakka: m turtish; zarba; itarish; گنا ~ لگنا
 zarba yemoq, turtilib ketmoq
 دهشقا ms 1 turtki; 2 maj qog'ozbozlik, byurokratizm ~ شايى
 دهشقا dhakka:(dhakkam)-pel ms jft دهکا (دکلم) پیل
 ur-sur, tiqilinch, ur-yiqit
 دهشقا dahakna: o'z 1 lovullab yonmoq; 2 yaraqlamoq
 دهشقا dhakelna: o' turtmoq, itarmoq دهکيلنا
 دهشقا dhula:na: o' yuvdirmoq (دهونا dan) دهلانا
 دهشقا dhulai: ms yuvish, tozalash دهلايى
 دهشقا dehliz: ms dahliz, ostona دهليز
 دهشقا dhama:ka m 1 portlash; 2 gumburlash; gumbur-gumbur; taraq-turuq
 دهشقا dhama:ka xez 1 tez portlaydigan, portlash xavfi bor; 2 maj juda xavfli; 3 حالت
 ms xavfli holat (vaziyat)

دهشقا dhamka:na: o' qora'tmoq, po'pisa q/q دهکنا
 دهشقا dhamki: ms do'q; tahfid; po'pisa: دهکى
 دهشقا qo'rqmoq; دهشقا qo'rqitmoq, do'g q/q دهشقا
 دهشقا dhamanbhaTTi: ms H-n domna pechi دهمن بھائی
 دهشقا dhan m 1 boylik; 2 don, g'alla دهشقا
 دهشقا dhan-daolat ms jft boylik, mol-muik دولت
 دهشقا dhun I ms kuy; ohang, motiv دهشقا
 II ms 1 intilish, xohlash; 2 butun vujudi b/n berilish; muftalo bo'lish
 دهشقا dehen m og'iz دهشقا
 دهشقا dhund ms tuman yoki tutun pardasi دهشقا
 دهشقا dhanda: m yumush, ish; biznes دهشقا
 دهشقا dihandaga:n ox kop beruvchilar; دهشقا
 ~ مائى m saylovchilar, ovoz beruvchilar
 دهشقا dhundla: q دهشقا دهشقا
 دهشقا dihanda ox beruvchi; ~ نجات xaloskor, najotkor; ~ درخواست arzchi, ariza beruvchi
 دهشقا dhuNdha: xira; tumanli, noaniq; دهشقا
 دهشقا ms xiralangan ko'z دهشقا
 دهشقا dhundha:haT ms 1 xiralik; 2 tutun yoki tuman pardasi دهشقا
 دهشقا dhaNsna: q دهشقا دهشقا
 دهشقا dhanush m H-n kamon دهشقا
 دهشقا dhanak ms H-n kamalak دهشقا
 دهشقا dhunakna: o' 1 paxtani chigitdan ajratmoq; 2 maj kaltaklamoq; do'pposlamoq دهشقا
 دهشقا dhani: m H-n boy, badavlat دهشقا
 دهشقا dhaniya: m kashnich دهشقا
 دهشقا dhanya:va:d m H-n rahmat, tashakkur دهشقا
 دهشقا dhua:N m 1 tutun; 2 bug', gaz; دهشقا
 ~ زهر پيلا zaharli gaz
 دهشقا dho'bin ms 1 kir yuvuvchi ayol; 2 kir yuvuvchining xotini دهشقا
 دهشقا dho'bi: m 1 kirchi, kir yuvuvchi erkak; دهشقا
 2 dho'bi (kir yuvuvchilar kastasi);

o'chini ~ پر بس نہ چلے گدھے کے کان مروڑے #
 kuchi yetganidan olish; # کا کتا نہ گھر کا نہ #
 hech narsada yo'q; dangasa, landovur
 دھوپ **dhu:p** ms quyosh, oftob; پڑتا ~ kun
 qizimoq; (سینکنا) ~ oftobda toblanmoq;
 oftobga qo'ymoq, quritmoq;
 jazirama issiq; جلیقی ہوئی (چھلپاتی) ~
 qariganda ham aql kirmaslik
 دھوتی **dho'ti:** ms dho'tiy (hindularda belga
 bog'lanadigan mato)
 دھوکا **dho'ka:** q دھوکہ
dho'ka m firib; yo'lg'on; aldash; makr;
 aldamoq, chalg'itmoq; کھانا ~ aldanmoq,
 pand yemoq; ~ bilmasdan, yanglishib
dho'keba:z m aldoqchi, firibgar
dhoke ba:zi: ms aldov; aldamchilik
dhoke dhaRi: ms q دھوکہ بازی
dho'kadehi: ms q دھوکہ بازی
 دھول **dhu:l** ms 1 chang, to'zon, g'ubor, gard;
 changini qoqmoq; 2 hech vaqo
 (narsa); ڈالنا ~ qoralamoq, yomonlamoq;
 ko'zini shamg'alat q/q; آنگھوں میں ~ جھونکنا #
 a) xonavayron q/q; b) beobro' q/q
 دھوم **dhu:m** ms shovqin-suron; g'ala-g'ovur,
 baqir-chaqir, to'polon; پچا ~ ovoza (dang'ir-
 dung'ir) q/q
dhu:m-dha:m ms jft hashamat,
 dabdaba, bashang; ~ tantana (dabdaba)
 b/n, dovruq solib
 دھونہ **dho'na:** o' yuvmoq, tozalamoq; ہاتھ منہ ~
 bet-qo'lini yuvmoq; # (سے) ہاتھ ~ a) umidini
 uzmoq; b) bosh tortmoq; c) ko'ngli qolmoq
 دھونس **dhaoNs** ms do'q-po'pisa; qo'rqitish;
 tahdid, do'q q/q
 دھونسیا **dhaoNsia:** m H-n aldamchi, firibgar

دھونکنا **dhaoNkna:** o' alanga oldirmoq; puflab
 yondirmoq
 دہی **dahi:** ms qatiq; (جمنا) ~ qatiq ivimoq
 (ivitmoq)
dahi: baRa: (baRe) m "dahi bara"
 (mosh va no'hot unidan yumaloq shaklda
 qililib qatiqqa solingan ovqat)
 دھیان **dhya:n** m 1 diqqat, e'tibor; ~ diqqat
 b/n, sinchiklab; (پ) e'tibor (ahamiyat)
 bermoq, quloq solmoq; 2 mulohaza qilish,
 o'ylash; ~ میں آتا a) miyaga kelmoq; b) esga
 tushmoq; (کا) a) esda tutmoq;
 b) e'tiborga olmoq; 3 es, xotira
 دھیرج **dhi:raj** m H-n sabr, qanoat
 ~ والا m H-n sabrli, chidamli
 دھیرے **dhi:re:** // (دھیرے) سے ~ asta-sekin,
 shoshmasdan; oz - ozdan
 دھیز **dahez** m q جمیز
 دھیما **dhi:ma:** sekin, asta; kuchsiz; دھی روشنی ms
 xira (kuchsiz) yorug'lik; دھی آواز past (sekin)
 ovoz; پڑتا ~ susaymoq; kuchsizlanmoq;
 pasaymoq
 دیا **diya:** m H-n sham; chiroq
 دیا **daya:** ms H-n 1 rahm; 2 hamdard
 دیا **diya:r, daya:r** ms 1 diyor, o'lka;
 دیا **diya:re-g'eyr** begona (yot) o'lka, xorij
 دیا **diya:sla:i:** ms gugurt
 دیا **diya:nat, daya:nat** ms diyonat, insof,
 vijdon, halollik
 دیا **diyonatli, pok, halol; sofdil**
 دیا **diya:nat dara:na** adolatli; دارانہ ~
 adolatli siyosat
 دیا **diya:** ms to'g'rilik, diyonatdorlik, halollik
 دیا **di:ba:cha** m debocha, so'z boshi,
 muqaddima

دپ di:p I m H-n orol

..... II m qora chiroq, sham chiroq

راگ di:pra:g m H-n diprag (kechki paytda ijro etiladigan klassik musiqa)

لا~ di:pma:ia: m charog'onlik, illyuminasiya; mushakbozlik

دیتا di:ta:Nt m so'zl keskinlikni yumshatish

دچک dechka q دچک

دید di:d ms 1 ko'rish, qarash; ~ قائل qa:bile-di:d ko'rishga arziydigan; diqqatga sazovor; 2 nazar; boqish

دیدار di:da:r m 1 diydor, uchrashuv; 2 ko'rish; کتا ~ (کا) a) ko'rmoq; b) ziyorat q/q

دیدہ di:da 1. ox ko'rgan; ~ جہاں tajribali, ko'pni ko'rgan; 2. m 1 ko'z; 2 ko'rish qobiliyati;

نوژکاراشما noz-karashma q/q; ko'z suzmoq;

دیدہ سے کا پانی وصل جانا sharmu xayoni yo'qotmoq;

3 bahodirlik, jasorat

دیرلی di:da daleri: ms qo'rqmaslik, beboklik

دیرلی di:darezi: ms qattiq urinish; zo'r hafsala qilish

دیرب di:dazeb P-n chiroyli, go'zal; kelishgan

دور di:davar 1 ko'zi o'tkir; 2 ziyrak; 3 mohir

دیدکی di:di: ms H-n 1 opa; 2 opa (murojaat)

دیر der ms 1 kechikish; سے ~ a) kechikib;

b) anchadan buyon; (میں) ~ کرنا (کردینا)

kech qolmoq; ~ ہونا kechikmoq; xayallamoq;

تھوڑی ~ کے لئے birozdan so'ng; تھوڑی ~ میں

qisqa mudatga; سے؟ qachondan beri?;

(آنا) ~ سے آنا (آنے میں ~ کرنا)

2 cho'zish, orqaga surish, paysalga solish;

دیدہ سے آید درست آید shoshmasdan (puxta) qilingan

ish yaxshi bo'ladi

پا~ derpa: barqaror; uzoq vaqt davom

etadigan

دیرینہ deri:na eski, qadimiy; qadrdon (mas do'st)

دیس des m yurt, vatan, diyor, mamlakat

دیس نکالا~ des nika:la: yurtdan badarg'a qilingan

دیس desi: 1 mahalliy, o'z yurtiniki; 2 maj qo'lbola

دیش desh m H-n q دیس

دیش deshva:si: m H-n vatandosh

دیگ deg' q دیگ

دیگچہ deg'cha q دیگچہ

دیکھا~ dekha:-bha:la: jft sinalgan; ishonchli

دیکھا~ dekha:-dekhi: ms jft taqlid qilish, o'xshatish

دیکھ بھال dekh-bha:l ms jft nazorat; kuzatish;

qarab turish; کتا ~ (کی) a) ko'z-quo'q bo'lib furmoq; b) parvarish q/q, boqmoq

ko'z ochib yumguncha, bir zumda

دیکھنا dekha: o' 1 ko'rmoq, qaramoq, boqmoq,

ko'zdan kechirmoq; دیکھنے میں ko'rinishidan,

tashqaridan qaraganda; دیکھنے میں آیا کہ

shunarsa ayon (bo'ldi) ki...; دیکھتے ہی

دیکھتے رہ; دیکھا جائیگا ko'rarmiz; bir gap bo'lar; دیکھتے رہ

جانا a) xayron bo'lib q/q; b) o'zini yo'qotmoq;

2 qidirmoq, izlamoq

دیکھ میں سے ایک ہی چاول دیکھتے ہیں #

bittaga qarab hammasini bilsa bo'ladi

دیگچہ degcha m dekcha, qozoncha

دیگر di:gar 1 boshqa, o'zga, bo'lak; 2 boshqasi

دیمک di:mak ms termit, qir chumoli

دین di:n m din; mazhab; ~ فطرت di:ne-fitrat m

islom dini

دار m dindor, xudojo'y

داری ms dindorlik, xudojo'ylik

دینیات di:niya:t ms diniy ta'limot; teologiya

دینا dena: o' 1 bermoq; topshirmoq; 2 boshqa

fe'ldan keyin kelsa ijozat berish ma'nosini bildiradi; ~ جانے ketishga ijozat bermoq;
 ~ کرنے qilishga ruxsat etmoq
 دېو dev m 1 tangri; ma'buda; 2 ulkan, dev
 بېگل dev heykal juda katta, haybatli
 ديوار di:va:r ms devor; to'siq; g'ov; ~ گچى loy devor
 ديوارى di:va:ri: devoriy (mas gazeta)
 ديوالى di:va:li: ms divali bayrami (hindularning Lakshmi ma'budasi sharafiga nishonlanadigan olov bayrami)
 ديواليه di:va:liya m inqiroz, bankrotlik; tanglik;
 ~ گنا bankro't b/q; ~ گنا bankro't q/q
 دېواليه ~ di:va:liyapan m q ديواليه
 ديوان di:va:n I m kulliyot; she'rlar to'plami; devon
 II m 1 podshoh saroyi; 2 esk vazir
 ديوانگى di:va:ngi: ms aqldan ozish, jinnilik, telbalik
 ديوانه di:va:na devona; jinni; aqldan ozgan; savdoyi
 ديوانى di:va:ni: I 1. sudga oid; 2. ms 1 vazirlik; 2 fuqarolar (grajdan) sudi
 II ms aqldan ozgan ayol
 ديوتا devta:, deota: m hindu 1 tangri; 2 sanam, ma'buda
 ديوت di:vaT ms 1 esk chiroq uchun taglik; 2 maj qop-qora odam
 ديودار deoda:r m Himolay kedri (igna bargli, doyim yashil rangli daraxt)
 ديور devar m qaynag'a (erning ukasi)
 ديورانى devra:ni: ms ovsin
 ديومالا devma:la: m H-n 1 mifologia; 2 afsonalar
 ديواناگرى devana:gri: ms devanagri (hindiy tili yozuvi)
 ديوى devi: ms 1 devi (hindularning ayol

ma'budasi); 2 H-n begim, bonu, oyim;
 دېھى ~ begoyim, xonim
 دېھى dehi ms q دېھيات
 دېھيات deha:t ms qishloq
 دېھياتى deha:ti: 1. qishloqqa oid; 2. m qishloqlik, qishloqi
 دېھاڑى diha:Ri: ms q دېھاڑى
 دېھاڑى di:ha:Ri: ms kunbay ish
 دار ~ di:ha:Ri:da:r m kunbay ishchi, mardikor
 دېھيات deha:Nt m hindu qazo, o'lim
 دېھى dehi: q دېھياتى

ط

- Da:l *ms* dol urdu alifbosining o'n ikkinchi harfi; abjad hisobida to'rt raqamini bildiradi
- Da:b I *ms* 1 xalta; 2 cho'ntak; 3 teridan qilingan tasma
- II *ms* xom ko'ko's
- III *ms* arqon to'qiladigan bir o't
- IV *q* ڈبگ
- Da:bar *ms* H-n 1 hovuz, pastlikda joylashgan suv havzasi; 2 qo'l yuvadigan idish
- Da:T *ms* tiqin; تاقنا - tiqinlab bekitmoq
- Da:riNg *m, ms* so'zl sevikli, mahbus, oshiq, mahbuba, ma'shuqa
- Da:Rh *ms* oziq (jag') tish; # گرم کرنا - chaynamoq; g'ippa-g'ippa (paqqos) tushirmoq; چاينماق - a) chaynamasdan yutmoq; b) majpora olmoq
- Da:Rhi: *ms* 1 soqol; بناقا - soqol olmoq; نهانا - soch-soqol oldirmoq; چھوڑنا (رھنا) - soqol qo'ymoq; # دھوپ میں سفید کرنا # beaql b/q (qariya haqida); اقلي گپلارنى گپيرموق (bolalar to'g'risida); 2 popuk (makkajo'xori vnk)
- Da:k *ms* 1 pochta bo'limi; روانه کرنا - pochta jo'natmoq; 2 xatlar, korrespon-densiya; آنا - pochta kelmoq
- خانہ - *m* pochtaxona, aloqa bo'limi
- ٹکٹ - *ms* pochta markasi
- Da:k ga:Ri: *ms* pochta tashiydigan poyezd
- ڈاک خانہ - *m* q گھر
- ڈاکیہ - *q* والا
- Da:ko'-ta:r *m* jft aloqa, bog'lanish, pochta va telegraf
- Do:k *m* do'k (kemalar quriladigan yoki

ta'mirlanadigan korxonaj

- Da:ka: *m* bosqinchilik, qaroqchilik, talon-taroj; ڈالنا, ڈالنا, ڈالنا, ڈالنا (پ) talamoq, qaroqchilik q/q
- Da:kTaR *m* 1 shifokor, vrach; 2 doktor (ilmiy daraja)
- Da:kTarni: *ms* 1 shifokor ayol; 2 shifokorning xotini
- Da:kTari: 1.tibbiy, shifokorlikka oid; 2. *ms* shifokorlik faoliyat; امداد - Da:kTari: imda:d *ms* tibbiy yordam; معائنہ - Da:kTri: moa:ina *m* tibbiy ko'rik, tashxis
- Da:kTereyT *ms* fan doktori (ilmiy daraja)
- Do'kTri:n *m* nazariya, g'oya; doktrina
- Da:ku: *m* qaroqchi, bosmachi, og'ri, talovchi
- Da:ku:menTari: hujjatli (mas film)
- Da:ka *m* q ڈاک
- Da:ki:ya: *m* 1 pochachi, xat fashuvchi; 2 chopar, xabarchi, kuryer
- Da:l *m* daraxt shoxi; آپ - ڈال میں, sen shoxida [yursang], men bargida [yuraman]; کا پکا - daraxt shoxida pishgan meva
-II *m* savat (sug'orishda ishlatiladi)
- Da:la: *m* katta shox
- Da:lar *m* dollar
